

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 1F (560)
BBK: 87,6 (5 Tuts)
X-23

XAMDAMOV ERKIN IBODULLAYEVICH

**ZIYO GO'KALP DUNYOQARASHINING
SHAKLLANISHIDA YEVIROPA IJTIMOIIY-FALSAFIY
TAFAKKURINING O'RNI**

5A 120501 – Falsafa tarixi (yo'nalishlar bo'yicha)

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
F.f.n., dots S. J. Ahmedova

TOSHKENT – 2014

M U N D A R I J A:

Kirish.....	3
I bob. XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida Turkiyada ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.....	9
1. XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiyada tarixiy shart-sharoit, ijtimoiy va ma'naviy hayot.....	9
2. Ziyó Go'kalpning hayoti va ijodi, uning ma'naviy merosi.....	18
I bob bo'yicha xulosa.....	29
II bob. Ziyó Go'kalpning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	30
1. Ziyó Go'kalpning davlat, millat, ijtimoiy tabaqa va toifalar haqidagi qarashlari.....	30
2. Go'kalp dunyoqarashida Hars, Kultur, Madaniyat tushunchalarining tahlili.....	43
II bob bo'yicha xulosa.....	57
III bob. Ziyó Go'kalp dunyoqarashida g'arb falsafasining o'rni va uning "To'g'ri yo'l" asaridagi jamiyatga oid qarashlari.....	59
1. Ziyó Go'kalpning jamiyat haqidagi qarashlari shakllanishida g'arb falsafasining ta'siri.....	59
2. Ziyó Go'kalpning "To'g'ri yo'l" asarida jamiyat sohalarining tahlili va siyosiy tamoyillarning tasnifi.....	69
III bob bo'yicha xulosa.....	77
Xulosa.....	79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	83

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng barcha jabhalar qatori tarix va falasafa kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida ham o'ziga xos islohotlar amalga oshirildi. Mustabid sho'ro tuzumi davrida tarix va falsafa sohalari tuzumga mos ravishda mafkuralashtirilgan edi. "Tarixning zulmat va jaholat hukmronlik qilgan muayyan davrlarida olimlarning quvg'in va ta'qibga uchrab, ko'pchiligining hayoti fojiali yakun topganini hozirgi kunda tasavvur qilishning o'zi qiyin"¹. Istiqloldan so'ng ushbu sohalarning asl mohiyatini xalqimizga yetkazish ziyolilarimizning dolzarb vazifasiga aylandi.

"Haqqoniy tarixni bilmasdan turib, o'zlikni anglash mumkin emas"²degan edilar prezidentimiz I.A.Karimov. Darhaqiqat, xalq o'z tarixini mukammal darajada o'rganishi zarur.

"Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi bo'lmaydi"³ Tarix kelajak sadosi vazifasini bajaradi. Shuning uchun mamlakatimizda ajdodlar xotirasini yod etish uchun turli xil bayramlar, yubileyler har yili nishonlanadi.

"O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi"⁴ – degan edilar yurtboshimiz. Mamlakatimizda ma'naviy ildizlarimizni, xususan, Sharq falsafasini o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Arab dunyosi, Eron, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Turkiya va Markaziy Osiyo xalqlari merosini o'zida jam etuvchi Sharq falsafasi doimo dunyo olimlari diqqat markazida bo'lib kelgan. Sharq har doim "asos soluvchi" vazifasini bajarib kelgan. Buyuk nemis shoiri Gyote aytganidek "*En Oriente lux*" "Nur Sharqdan"dir.⁵ Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy, siyosiy, falsafiy qarashlarini tadqiq etishimizni davr taqozo qilmoqda. Sharq mutafakkirlari ilimiy merosini o'rganish orqali biz naqadar buyuk yurt avlodi ekanligimizdan

¹Karimov I.A. "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" Samarqanddagi xalqaro konferensiyadagi nutq. – "Xalq so'zi", 2014.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Toshkent: "O'zbekiston", - 1999-y. –B. 153

³ Karimov I.A O'zbekistonning o'z istiqloil va taraqqiyot yo'li. Toshkent: "O'zbekiston", -1997-y. –B. 71

⁴ Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: "Sharq", -1998-y.

⁵ Fozila Sulaymonova. Sharq va g'arb Toshkent: "O'zbekiston".1997-y.-B. 3

faxirlanamiz. “Bu yerda gap tantanalardagina emas, muhimi biz ularning o’z davrida kelajak avlodlar uchun qoldirgan salmoqli merosi, ijobiy ishlari, kerak bo’lsa umumjahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissalarini qadrlaymiz. Albatta, har bir millat o’z ajdodlarini eslash, ularning hurmatini joyiga qo’yishga intiladi. Faqat bu kabi ishlar o’z mohiyati jihatidan xalqlarni yaqinlashtirishga, ularni hamjihat etishga xizmat qilsin”.⁶

Ushbu dissertatsiyada Sharq falsafasining yirik namoyondalaridan biri Ziyo Go’kalpning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tadqiq etiladi. Mazkur mavzuning dolzarbliklaridan biri uning mamalakatimizda deyarli tadbiiq etilmaganligi.

“... Biz butun mamlakatimiz qatori, xorij ahli bilan, tariximiz o’zaro uzviy bog’langan qo’shni davlatlarning xalqlari bilan, dunyodagi barcha tinchliksevar ellar bilan ilm, madaniyatning hamjihatlik sohalaridagi munosabatlarimizni yanada yaxshilash tarofdorimiz”.⁷

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ma’lumki Sharq va G’arb o’rtasida ko’p masalalarda, jumladan, jamiyat , siyosat, falsafa sohasida olib borilgan tadqiqotlarning, ilk bor amalga oshirilishi borasida ilmiy bahslar olib borilmoqda. Shuningdek, g’arbliliklar o’zlarining birinchi ekanliklari “Yevropasentrizm” g’oyasi asosida isbotlashga harakat qiladilar. Ziyo Go’kalpning jamiyat, davlat, siyosat haqidagi qarashlarini o’rganib, imkon qadar yuqoridagi savollarga javob topishga harakat qilamiz. Turli xil davr va millat tadqiqotchilarining ilmiy tadqiqotini o’rganish va taqoslash, shu bilan birga, Turkiya xalqining o’tmishi, buguni va kelajagi haqidagi qarashlarini aks ettirgan asarlarini o’zbek tiliga tarjima qilib, mamlakatimiz istiqboli uchun naf keltiradigan ish qilish asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiyada tarixiy shart-sharoit, ijtimoiy va ma’naviy hayot tadqiq qilish;

- Ziyo Go’kalpning hayoti va ijodi, uning ma’naviy merosini o’ranish;

⁶ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T.: “O’zbekiston”, -1999-y. –B. 148

⁷ Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O’zbekiston. -2011,-B.243.

- Ziyo Go'kalpning davlat, millat, ijtimoiy tabaqa va toifalar haqidagi qarashlarini taxlil qilish;

- Go'kalp dunyoqarashida Hars, Kultur, Madaniyat tushunchalarining tahlili

-Ziyo Go'kalpning jamiyat haqidagi qarashlari shakllanishida g'arb falsafasining ta'sirini tadqiq qilish;

- Ziyo Go'kalpning "To'g'ri yo'l" asarida jamiyat sohalarining tahlili va siyosiy tamoyillarning tasnifi o'rganish.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. ".....Tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari paydo bo'ladi. Eng asosiysi, ta'lim-tarbiya ravnaq topib, unga qiziqish, e'tibor kuchayadi. Tinchlik-barqarorlik bo'lgan joydagina odamlar o'qib-o'rganishni, har tomonlama rivojlanishni istaydi"⁸. XIX asr oxiri XX asr boslarida Turkiya hududida ijtimoiy va siyosiy vaziyat, Ziyo Go'kalpning hayoti va ilmiy merosi ob'yekti, Ziyo Go'kalpning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi esa predmeti.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Hozirgi zamon sharq falsafasini o'rganish sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahvoli haqida tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi. Shuningdek, qardosh halqlar falsafasini o'rganish va unda ilgari surilgan muammolarni taxlil qilish, jamiyatdagi muammolarga ko'rsatilgan yechimlarni o'rganish o'z jamiyatimizdagi muammolarni hal etish ham qandaydir turtki bo'lishi mumkin. Dissertatsiyada keltirilgan ma'lumotlar hozirgi jamiyatlarda ko'rinayotgan ayrim holatlarni oldini olishda, ommaviy madaniyatni salbiy tomonlarini ko'rsatib berishda vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin va sharq falsafasining ayrim masalalarning yechimini topishda foydalanish mumkin bo'ladi.

Mavzuning o'rganilganligi. Dissertatsiya mavzusi aniqrog'i Ziyo Gokalp ijodi respublikamizda deyarli tadqiq etilmagan. Demak, bundan ko'rinadiki Ziyo Go'kalpning falsafiy dunyoqarashi haqida yirik ilmiy fundamental tadqiqot hali

⁸ Karimov I.A. "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati" Samarqanddagi xalqaro konferensiyadagi nutq. –"Xalq so'zi", 2014.

tadqiq etilmagan. Bu esa, mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilash bilan birga, uni yozish jarayonida ba'zi bir qiyinchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Respublikamizda Ziyo Go'kalp ijodi bo'yicha deyarli ilmiy ish qilinmagan lekin bazi bir manbalar mavjud lekin bu ilmiy ishlarni sanoqli deb hisoblaymiz. 1993-yil "Turon tarixi" jurnalining 12 sonida, 1989-yil "Fan va turmush" kabi jurnallarda faylasuf haqida ba'zi ma'lumotlar keltirgan Ziyo Go'kalpning ijtimoiy va siyosiy qarashlari bo'yicha bir qancha ilmiy ishlari va maqolalari rus va o'zbek tillarida chiqdi.⁹ Bundan tashqari, Ziyo Go'kalpning "Türkçülüğün Esasları" (Turkchilikning asoslari) asarini 1970 yil Istanbul, 1991yil Anqarada Prof. Mehmet Qoplon tomonidan tayyorlangan nashrni sof o'zbek tiliga tarjima qildi. Bu asarda Ziyo Go'kalpning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari aks etgan. Tarjima hozirda Ziyo Go'kalpning hayoti va fayoliyatini o'rganishda muhim ahamiyat etadigan qo'llanma hisoblanadi. Ziyo Go'kalpning boshqa asarlari ham bor, lekin bu asar Ziyo Go'kalp hayot faoliyatining asosini yoki ijodining ijodining sermahsulligidan dalolat beradi. Shuning uchun biz mazkur dissertatsiya ishimizda bu tarjimadan ko'proq foydalanishga harakat qildik. Lekin bundan tashqari ko'plab boshqa asarlaridan ham foydalandik, faylasufning "To'g'ri Yo'l" asarining ko'plab qismini o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Ziyo Go'kalpning hayoti va asarlari turk va chet el mutaxasislari tomonidan ham tadqiq etilganligi diqqatga sazovordir.

Tadqiqotning uslubi va uslublari. Mazkur dissertatsiyani yozishda milliy ma'naviy merosimizni tiklash va avaylab asrashga doir O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Majlis va Senat qonunlari, Prezident I.A.Karimovning ma'naviy-ahloqiy meros hamda milliy g'oya haqida ilgari surlgan fikrlari, milliy va umuinsoniy qadriyatlar uyg'unligi to'g'risida qilgan ma'ruzalari asos qilib olindi. Shuningdek, falsafa tarixi bo'yicha tadqiqot olib brogan yirik faylasuflarning ilmiy asarlari muhim nazariy asos vazifasini o'tadi.

⁹ Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati unda bayon etilgan mulohazalar, ijtimoiy fikrlar va qarashlar, nazariy xulosalardan falsafiy tafakkurni kengaytirishga, mustaqil fikrni o'stirishda, ontologik va gnoseologik qarashlarni boyitishga o'ziga xos hissa qo'shishida, zamonaviy Sharq falsafasiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda, hamda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo'lib xizmat qilishda o'z ifodasini topadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni o'rganib, atroflicha tahlil qilib, milliy mafkuramiz yo'lida to'g'ri foydalanib, to'g'ri xulosa chiqargan holda, undagi nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, sharq falsafasiga doir to'garaklarda, dars jarayonlarida "sharq falsafasi tarixi" kabi fanlarni o'qitishda va ushbu yo'nalishlardagi turli ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-Magistrlik dissertatsiyamizda Ziyo Go'kalpning falsafiy qarashlarini asl manbalar asosida bayon etildi, shuningdek, imkon qadar sharhlashga, tahlil va izohlashga harakat qilindi.

-Tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda, Ziyo Go'kalpning falsafiy qarashlarida g'arb falsafasiga munosabat ob'yektiv tarzda, dunyoviy yondashgan holda tahlil qilindi.

-Go'kalpning ilmiy ijodini o'rganish va tadqiq etish mobaynida faylasufning hayoti va ma'naviy merosi o'rganildi va tahlil qilindi.

-Ziyo Go'kalpning jamiyat haqidagi qarashlarining asosiy xususiyatlari ko'rsatib berildi;

- Mutafakkir dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan g'oyaviy ta'sirlar o'rganildi. Fransuz falsafasi va jamiyat haqidagi qarashlar Ziyo Go'kalpning faoliyatida ham ko'zga tashlanadi. Hattoki 1897-yilda o'qigan fransuzcha kitoblarning unga "yomon ta'sir" qildi, degan ayb bilan qamalishi bunga misol.

-Bu yurtimizda Ziyo Go'kalpning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini o'rganishda

kichik bir yangilik bo'ladi, deb umid qilamiz.

Tadqiqotning tuzilishi va tarkibi. Dissertatsiya “Kirish”, 3 bob, 6 band, “Xulosa” va “Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati”dan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 91 sahifadan iborat.

I bob. XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida Turkiyada ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot

1. XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiyada tarixiy shart-sharoit, ijtimoiy va ma'naviy hayot

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida butun dunyoda, ayniqsa Yevropaning sharqiy qismi, Boltiq bo'yi davlatlari, jumladan Kichik Osiya va Yaqin sharq mamlakatlarida katta siyosiy-jug'rofiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu davrga kelib Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol ham anchagina jiddiy tus olgan edi. Chunki, bir tomondan Usmoniylar Imperiyasidan qolgan eski udumlar haligacha saqlanib qolgan, boshqa tomondan esa, hukumatda diniy xurofotlar doirasida bo'lgan siyosiy arboblarning hukmronlik qilganligi sababli unga qo'shni bo'lgan davlatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalar o'rnatishi va o'zaro diplomatik munosabatlarga kirishishi ham qiyin kechdi. Ya'ni boshqa tomondan, mamlakatda sulton hukmronlik qilar, uning amri, farmoniga fuqorolar so'zsiz amal qilishi lozim bo'lgan, yakka hukmronlikka asoslangan monarxiya hukm surar, sultonlar chet davlatlar bilan faqatgina o'zining manfaatlaridan kelib chiqqan holda munosabatga kirishardi.

Qishloq xo'jaligidagi "tushkunlik" birin-ketin ocharchilik yillarini olib keldi. Ayniqsa, 1873-1875-yillarda Kichik Osiyoning markaziy tumanlarida kuchli ocharchilik bo'lib, buning natijasida ko'p odam qirilib ketdi.¹⁰ Bu jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi, albatta. Jamiyatda endi o'zgacha fikrlaydigan, rivojlanayotgan Yevropa davlatlaridagi farovon hayot va erkinliklar bilan tanish bo'lgan ma'rifatli insonlar ko'payib bormoqda edi. Bu ko'proq markaziy shaharlarda istiqomat qiluvchi zodagonlar va ziyolilar dunyoqarashida namoyon bo'lar edi.

¹⁰ <http://www.ziyo.net> / Turkiya-1870-1920-yillarda

Bu davrga kelib shahar aholisining ham ahvoli og'irlashdi. Hunarmandchilik "tushkunlikka" uchradi. Eski tartiblar va xorijiy tovarlarning ko'pligi mamlakatda iqtisodiyotning taraqqiyotiga to'siq bo'ldi. Sulton rejimi o'zining moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun chet eldan qarz ola boshladi. 1870-1874-yillarda 3mlrd. Frankdan ortiq asoratli qarz olindi.¹¹

XIX asrning 70-yillarida mamlakat inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Xalqning noroziligi oshdi. Muhojirlikda bo'lgan "Yangi usmonlilar" faollashdilar. Ular chet elda gazetalar nashr qilib, varaqalar tarqatib, mamlakatda konstitutsiyaviy tuzum va islohotlar o'tkazishni talab qila boshladilar. Ularning bu g'oyalarini bir qator liberal kayfiyatdagi amaldorlar va harbiy ofitserlar qo'llab-quvvatladilar. Bu harakatga bir vaqtlar "Ulug' vazir" nomini olgan Midxat posho ham qo'shildi. "Yangi usmonlilar" va Midxat posho Turkiyaning liberal pomeschchiklari va "tug'ulib" kelayotgan burjuaziya manfaatlarini ifoda etardilar. Ular sulton rejimiga qarshi kurashdilar. Midxat posho Angliya bilan yaqinlashish tarafdori edi.

1870-1880-yillarda Turkiya iqtisodiy inqiroz ichida qoldi.¹² Chunki, hukumat o'tkazgan islohatlar qoloq ishlab chiqarish munosabatlarini o'zgartirishga qodir emas edi. Yangi boshqaruv doirasida burjuaziya bo'lgani bilan o'zining avvalgi huquqlaridan kechmagan edi. Hokimyat faqat davlat xazinasidagi kamomadni to'ldirish bilan shug'ullanardi. Viloyatlarda amalparastlik, poraxo'rlik, soliqlarni o'g'irlab, o'zlashtirish avjiga chiqdi. Qonunsizlik, o'zboshimchalik xalq ommasini og'ir ahvolga soldi. Hukumatning soliq siyosati kuchaydi.

Qishloq xo'jaligi mollari suniy narxlarda olinar, dehqon o'z mehnatidan manfaatdor emas edi. Viloyatlararo boj undirish tartibi ham savdo munosabatlariga to'siq bo'ldi. Hukumat buni bekor qilishga majbur bo'ldi. Lekin, bu yuqotish o'rnini qoplash uchun shahar solig'ini 25 foizga oshirib qo'ydi.

Sanoatda ham o'sish yo'q edi. Chunki, sanoat uchun qishloq xo'jaligi xomashyo yetkazib berish qudratiga ega emas edi. Chet el sarmoyasi va tovarlari bozorni egallab olgan edi.

¹¹ <http://www.eduportal.uz> Turkiya tarixi

¹² <http://www.ziyo.net> / Turkiya-1870-1920-yillarda

1874-yili chet el sarmoyadorlariga konlarni ishga solishga ruxsat beruvchi qonun qabul qilindi.¹³ Davlatning moliyaviy ahvoli halokat yoqasida edi. Tashqi qarz 5.5 milliard frankga yetdi.¹⁴ 1876-yili turk hukumati o'zinig moliyaviy inqirozga yuz tutganligini e'lon qildi. Bir vaqtlar qurol kuchi bilan birlashtirilgan, mustahkam iqtisodiy a'loqalari bo'lmagan, Usmoniylar imperiyasi yildan-yilga zaiflasha boshladi. Ishlab chiqarish past darajada bo'lgani uchun iqtisodiy o'sish nihoyatda sekinlashdi. 1875-yilda qarz hisobiga sarflar 570.5 million frank bo'lgani holda, daromadlar 380 million frank bo'ldi.¹⁵ Davlat chet eldan olgan qarzini to'lashga, odamlarga maosh berishga qodir emas edi. Buning ustiga turk puli o'z qiymatini 30 foiz yo'qotib, narx-navo keskin ko'tarildi. Mamlakatda qo'zg'olonlar boshlanib ketdi.

Turk sultoni Abdulaziz hukumati mamlakatni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Mamlakatda sulton hokimiyatini tugatish g'oyasi shakillandi. "Yangi usmonlilar" burjua-demokratik harakati kundan-kunga rivojlana boshladi. Ular tashkil etgan "Ibrat" nomli gazeta ilg'or demokratik g'oyalar "tashuvchisi" bo'ldi. Bu g'oyalarni millatparvar ziyolilar qo'llab quvvatladilar va "yangi usmonlilar" harakatida alohida o'rin tutdilar. Dastlab Turkiyadagi iqtisodiy, siyosiy inqiroz uchun Sulton Abdulaziz javobgar deb, uni taxtdan tushurish va o'rniga yaxshiroq sulton tayinlab, uning "soyasida" Konstitutsiya qabul qilish rejasi bo'yicha ish ko'rildi. 1876-yil 22-mayda qo'zg'olon boshlanib, 30-may kuni shayxul-islom fatvosi bilan Abdulaziz taxtdan tushurildi va bir necha kun o'tgach o'ldirildi.¹⁶

Bolqonda harbiy-siyosiy vaziyat chigallashdi. Ijtimoiy harakat kengaydi. Chernigoriya va Serbiya Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi. Lekin serblar jangda yengildilar. Rossiya Turkiya bilan slovyan xalqlari janjaliga xalqaro aralashuvni talab qildi.

Birinchi jahon urushidan keyin Turkiyada markazlashgan demokratik davlat tuzishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Sababi Turkiya ittifoqdosh sifatida yengilgan edi. Endi faqatgina Turkiyani markazlashgan davlat qurish bilan qutqarib qolish asosiy

¹³ <http://www.ziyo.net> / Turkiya-1870-1920-yillarda

¹⁴ <http://www.eduportal.uz> XIX asrda Turkiya tarixi

¹⁵ <http://www.eduportal.uz> XIX asrda Turkiya tarixi

¹⁶ <http://www.kurdishcenter.ru/turkiye/tarihi/Sherefiddin.Z>

vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatni rivojlanishida asosiy yutuqlaridan biri, Turkiyani geografik jihatdan Yevropaga yaqin bo'lgani, buning uchun diniy hurofotlikdan chiqib qo'shnilar bilan ham diplomatik aloqalarga kirishishi lozim edi. Shunday bir og'ir vaziyatlarda o'z vaqtida Mustafa Kamol Otaturk siyosiy davraga chiqdi. Otaturkning vazifasi Turkiyani o'z tamoyillariga tayangan holda, mamlakatda o'zgacha demokratiyani yaratish edi. Bu vazifani Otaturk sidqi dildan ado etgan holda, mamlakatda yangi davlat tizimini joriy qildi. "Turk millatining tabiatiga va xarakteriga munosib bo'lgan boshqaruv usuli Jumhuriyat boshqaruvidir"¹⁷, deya da'vat etdi.

Davlat boshqaruv usuli o'lkaning eng chekka nuqtalariga qadar katta hayajon, sevinch bilan qabul qilindi. Millat davlatning turk Vatanini asrlar davomida to'planib qolgan bir qancha eski boshqaruv usullari, illatlaridan xalos etuvchi va o'lkaning obro'sini, hurmatini qadrllovchi, xalq manfaatlarini ko'zlovchi birdan bir boshqaruv tizimi ekanligiga bo'lgan ishonchini ochiqdan - ochiq namoyon qildi.¹⁸

Millat, endilikda, davlatning hozirgi va kelajakda ehtimoli nazarda tutilgan har qanday hujumdan muhofaza qilinishini qat'iylik bilan talab qilgan, hamda Hukumat zamonaviy va madaniy boshqaruv usulining barcha talablarini to'g'ridan to'g'ri, jadallik bilan hayotga tadbqiq qilishi va rivojlantirishi lozim edi. Zimmaga yuklatilgan bunday og'ir vazifani xalqni xohish istaklaridan kelib chiqqan holda, muvaffaqiyat bilan amalga oshirish zarur edi.

Bunday noroziliklar Turkiya Sevr shartnomasini tugatishga qarshi milliy ozodlik harakatlariga sabab bo'ldi. Harakatni tashkillashtirish Birinchi jahon urushi butun dunyodagi vaziyatni izdan chiqarib yubordi. Turkiya Germaniyaning ittifoqdoshi sifatida yengilgan mamlakatlar qismatini bo'lishib oldi. 1920-yil 10-avgustda Parij yaqinidagi Sevr shahrida shartnoma imzolanadi.¹⁹ Bu Turkiya tarixini hal qilishi kerak edi. Sevr shartnomasiga ko'ra, sobiq Usmonli turk imperiyasi amalda Fransiya va Angiliya o'rtasida taqsimlanadi.

¹⁷ Tuncay.Ö. Türk Milletinin Büyük Önderi Atatürk. Ankara 1998. –B. 11.

¹⁸ Tuncay.Ö. Türk Milletinin Büyük Önderi Atatürk. Ankara 1998. –B. 15.

¹⁹ <http://www.ziyo.net> / Turkiya-1870-1920-yillarda

Sevr tinchlik shartnomasida nafaqat imperiyaning bo'linishi, balki Turkiyaning o'zini ham parchalashi ko'zda tutilgan edi. Turkiyada yarim mustamlaka tartiboti o'rnatiladi va amalda suveren davlat huquqidan mahrum etiladi. Chet ellik fuqaro Turkiya sudiga bo'yso'nmaslik qonuni va mavjud bo'lgan kapitulyatsiya tartiboti tiklanadi. Angliya va Fransiya vakillaridan iborat kommissiya Turkiya mablag'lariga egalik qilib, Turkiya byudjetining nazoratini amalga oshirar edilar. Unga boshchilik qilish uchun turk armiyasi generali Mustafo Kamol Otaturkga berildi. 1922-yilda Mustafo Kamol Otaturk boshchiligidagi turk armiyasi intervension armiyaning bir qismi bo'lgan grek qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Dastlabki g'alabalar turk armiyasini va shaxsan Mustafo Kamol Otaturkni ruhlantirdi. Shundan so'ng, u sultonlikni bekor qildi. Turkiya qoloqligining, mag'lubiyatlarining, g'arb davlatlariga qaram yarim mustamlaka provinsiyaga aylanib qolganligining bosh sababiga barham berildi.

XX asr boshlariga kelib Turkiya rivojlangan davlatlarning yarim mustamlakasiligicha qolaverdi. Bu narsa mamlakatda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan bir yo'nalishda ketdi. Lekin xorijiy monopolistlar tomonidan ekspluatatsiyaning kuchaytirilishi mamlakatda milliy ishlab chiqarishning asosiy to'sig'i edi. Xorijiy kapitalistlar zulmi Turkiyada ekspluatatsiya qoldiqlari bilan, shuningdek Abdulhamid II mutloq mustabid tuzumi bilan chambarchas bog'langan edi. Turkiyadagi xaydaladigan yerlarning 65 foizi yer egalariga va musulmon ruhoniylarga qarashli edi. Bu yerlarning katta qismi yersiz va kam dehqonlarga ijaraga berilardi. Eski tuzum qoldiqlarining mavjudligi ichki bozorning og'ir ahvolda ekanligi va mamlakatda kapitalistik sanoatning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.

Usmonli turk imperiyasida inqilobiy harakat yetilishining o'ziga xos tomonlari bor edi. Turklar mamlakat aholisining uchdan bir qismini tashkil etardi. Mamlakatning turli viloyatlari orasidagi iqtisodiy aloqalar sekin rivojlanmoqda edi. Turk adabiy tili shu hududda yashovchi barcha xalqlarga birday tushunarli emas edi.

Turkiyada paydo bo'lgan savdo burjuasiyasining (asosan komprador burjuaziya) ko'pchiligi turklardan bo'lmay, yunon va armanlardan iborat edi. Turk milliy burjuaziyasi XX asr boshlariga kelib shakllana boshladi, lekin hali zaif va sanoqli edi. Bu davrda tashkil topayotgan ishchilarning ham soni 40-50 ming kishidan oshmas, ular tarqoq holda joylashgan bo'lib, ularning orasida turk millatiga mansub kishilar kam edi.

Turkiyada milliy burjuaziyaning kuchsiz rivojlanganligi, fabrika sanoatining deyarli yo'qligi, milliy burjuaziyaning sudxo'rlik xarakteri va pomeschchik yer egaligi bilan bog'langan xalq ozodlik harakatida o'z ifodasini topdi. Milliy burjuaziya bu harakatga rahbarlik qilgan bo'lsa-da, ammo xorijiy monopolistlar hukmronligiga qarshi chiqmadi va dehqonlarning yer bo'yicha talablarini qo'llay olmadi. Ularning talablari asosan "Birlik va taraqqiyot" partiyasi dasturlarida aks etgan bo'lib, Turkiyada parlamentli konstitutsiyaviy monarxiya tuzumini o'rnatish va Abdulhamid II hokimyatini ag'drishga qaratilgan edi, xolos. Ammo, shuni ham ta'kidlash lozimki, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turkiya G'arbdan barcha sohalarda: jumladan, ilm-fan, sanoat, iqtisodiyot va harbiy sohalarda ortda qoldi.²⁰ Turkiyaning Shimoliy Afrika, Old Osiyo va Arab mintaqasidagi mustamlakalari Angliya va Fransiya tomonidan bo'lib olindi. Bolqondagi mustamlakalarida esa Rossiyaning ta'siri bo'lib, ozodlik uchun harakatlar kuchayib ketdi. Usmonli imperiyasining oldingi xalqaro siyosiy maydondagi ta'siri yo'qqa chiqdi. Mamlakat ichida ijtimoiy-iqtisodiy tanglik yuzaga keldi.

Bunday iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tang ahvoldan chiqish uchun davlatda 1839-yildan Tanzimat islohatlari o'tkazildi.²¹ Ammo islohotlarning barchasi sulton va podsholar manfaatlariga qaratilganligi bois kutilgan natijani bermadi. Biroq, g'arbning mamlakatga ta'siri yanada kuchaydi, mamlakatdagi mavjud siyosiy tuzumga nisbatan yangilik kiritish g'oyalari vujudga keldi. Davlatdagi mavjud ahvol davlatning boshqaruv sohasi, iqtisodiyot va ma'orifni isloh qilishni taqozo etardi. Mamlakatda vujudga kelgan bo'shliqni to'ldirish uchun zamonaviy

²⁰ <http://www.ziyo.net> / Turkiya-1820-1920-yillarda

²¹ <http://www.eduportal.uz> XIX asrda Turkiya tarixi

o'zgarishlar zarur edi. Buning ustiga mamlakatdagi ma'rifiy qoloqlik, ijtimoiy fikrda hamjihatlikni yo'qligi tufayli, g'arb falsafasi, mafkurasi, madaniyati hech qanday qarshiliklarsiz kirib kela boshladi. Tanzimatdan I Meshrutiyatgacha (1839-1876yillar) bo'lgan davrda mamlakat hayotida g'arblashish kuchliroq ta'sir ko'rsatardi. Xalq orasida, g'arb madaniyati, ma'rifatini targ'ib qiluvchilar yetishib chiqdi. Tanzimat ilg'orlari g'arbning tezlik bilan rivojlanish sabablarini o'rganib, mamlakatdagi va xalq hayotidagi tanglikni bartaraf etishga harakat qildilar. Turkiya nima uchun taraqqiyotdan ortda qoldi? Davlatda yuzaga kelgan mavjud tanglikni qanday bartaraf etish mumkin? Sultonlikni g'arb darajasiga ko'tarish uchun nimalar qilish va ilmiy jihatdan qanday falsafiy ta'limotga tayanish kerak? Yechim sifatida g'arb madaniyati, ilm-fan va texnika taraqqiyotini olish kerak, degan fikrlar paydo bo'la boshladi. Ushbu muammolar yuzasidan turk ziyolilari orasida g'arbning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy ta'siri kuchayib bordi. Mamlakat esa, iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib qoldi. Mamlakatda g'arb ta'limi asosida Tibbiyot akademiyasi (1826-yildan), Galatasaroy litseyi ochildi. Bulardan Tibbiyot akademiyasi darvinizm, freydchilik, materializm va pozitivizmning targ'ibot markaziga aylandi²² (Keyinchalik bu yerda tahsil olgan yosh ofitserlar positivist ruhdagi inqilobiy guruh tuzishdi). Mamlakatda g'arbachilikning keng yoyilishi, mavjud barcha ijtimoiy-ma'naviy sohani ostin-ustin qilib yubordi.

Shuningdek, bir guruh ma'rifatparvarlar milliy madaniyatni, shu bilan birga an'anaviy qadriyatlar va g'arb taraqqiyotini birlashtirishni (Filibelik Ahmad Hilmiy, Said Halim Poshsho); boshqa bir guruh g'arb ilm-fani va texnologiyasinigina hayotga tatbiq etib, mamlakatni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni (Ziyo Go'kalp, Abdulla Cevdat, Tevfik Fikret va bosqalar) ilgari surishdi.²³ Shunday qilib, mamlakat g'arb madaniyati, mafkurasi va siyosati ta'siri ostida rivojlana boshladi, bu jarayonlar Turkiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari yo'lidagi dastlabki yutuqlari edi.

²² Bayram Ali Cetinkaya, Modern Turkiye'nin felsefi ko'kenleri, Ankara,2002-y,B-67

²³Turkone Mumtazir, Islamcilig'in dog'usu,Istanbul.,1991 y, -B 42-43

1908-yilda Abdulhamid II taxtdan tushirilgandan so'ng, Turkiyada ijtimoiy hayotida faollashish yuz berdi. 1908-1918 yillar oralig'ida G'arbdagi mavjud barcha falsafiy qarashlar, falsafiy oqimlar va adabiyot maktablari mamlakatda keng yoyila boshladi²⁴. Ularning ta'siri faqat nazariya bilan chegaralanmasdan, ijtimoiy hayotda ham o'z aksini topdi. Turk yoshlari Fransiyada tahsil olishgan va O. Kont, E. Dyurkgeym, E. Renan, Bergson, Alfred Fouillee, asarlari bilan yaqindan tanishishgan. Turkiyada fransuz maktablari ochilgan. Maktablarda fransuz tili o'rgatilib, bu fransuz faylasuflarining asarlari bilan bevosita tanishish imkonini bergan. Fransuz tiliga, Rashod Nuri Guntegin ta'biri bilan aytganda, bilimlar kaliti sifatida qaraldi. Mamlakatda dunyoviy muhit vujudga keldi. G'arb faylasuflarining falsafiy, ma'rifiy va liberal ijtimoiy qarashlari turk ma'rifatparvarlarini o'ziga tortdi. G'arb adabiyotlaridan Dekart, Nyuton, Jon Lokk, Volter, Russo, Monteskye, L. Buchnerning asarlari tarjima qilindi. Ularning ilg'or ijtimoiy g'oyalari targ'ib qilina boshlandi.

Shunday qilib, bu davrda turk falsafiy tafakkurida kuchli ta'sirga ega bo'lgan yo'nalishlar sifatida a)Spiritualizm (anti-materialist), b)Materializm, c)Positivizm, kabi oqimlar misol keltiriladi.²⁵

Usmonli turk imperiyasidagi siyosiy harakatlar imperiya tarkibida milliy mustaqil davlatlar, jumladan, Turkiya eski udumlardan voz kechmasdan turib, taraqqiyot yo'liga chiqib olish mumkin emasligini ko'rsatadi. Turk milliy burjuaziyasi shovinistik yo'ldan borib, boshqa millatlarning taraqqiyparvar harakatini ham o'rgandi.

Ana shunday bir sharoitda Rossiya va Eronda bo'layotgan inqilobiy voqealar Turkiyaga ham katta ta'sir ko'rsatdi. "Yosh turklar" asoschilaridan biri Abdulla Javdat o'z vatandoshlariga murojaat qilib, "Barcha ezilgan musulmon va musulmon bo'lmaganlar birlashingiz!"-deb xitob qildi.²⁶ Mamlakatda aholining bir qatlamini o'z ichiga olgan bu istiqloлчаilik harakati "Yosh turklar" nomini olgan edi. "Yosh turklar"ning birinchi qurultoyi 1902-yili Parij shahrida bo'ldi. Unda

²⁴ <http://www.risaleinurenstitusu.org>. Batı Medeniyetinin İki Veçhesi

²⁵ Bayram Ali Cetinkaya, Modern Türkiye'nin felsefi kökenleri, Ankara, 2002-y, B-70

²⁶ <http://www.kurdishcenter.ru/turkiye/tarihi/Sherefiddin.Z>

1867- yili bekor qilingan konstitutsiyani tiklashga qaror qilindi. Ko'pgina boshqa masalalarda "Yosh turklar" bo'linib ketishdi. "Yevropacha yo'l"dan borish tarafdolari "Markazdan qochish va shaxsiy tashabbus ligasi" tashkilotini tuzdilar, boshqa guruh "turkparastlik" va islomiy rivojlanish yo'lini tutdi.²⁷ Bo'lajak inqilobiy harakatlarning yo'l boshchisi Mustafa Otaturk "Vatan" nomli tashkilot tuzdi. Tashkilot "Yosh turklar" harakatiga birlashib ketdi. 1907-1908-yillarda Turkiyada inqilobiy vaziyat yuzaga keldi. Bu vaqtda Makedoniyada qo'zg'alon ketayotgan edi. Avstriya-Vengriya Makedoniyaning "tanobini tortib qo'yish" uchun hujum qilmoqchi edi. Angliya va Rossiya german davlatlarining bunday yo'l bilan Bolqonda kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka kelishib olishdi. Sulton Abdulhamid II milliy ozodlik kurashchilariga qarshi hech qanday chora ko'rmadi. Xorijiy monopolistlarning da'volariga ham biror aytarli javob berishga ojizlik qildi. Shu sharoitda "Yosh turklar" tashabbusni qo'lga olishga qaror qildilar. 1908-yil 20-iyulda Monastir shahrida "Birlik va Taraqqiy" partiyasi tantanali bir vaziyatda Konstitutsiya tiklanganligini e'lon qildi va sultondan bu masalada farmon berishini talab qildi. Armiya "Yosh turklar" tomonida ekanligi Abdulhamidni cho'chitib qo'ydi. U 24-iyul kuni "Iroda", ya'ni qarorini e'lon qilib, Konstitutsiyasini tiklab parlamentga saylov o'tkazishni va'da qildi. Turkiya inqilobi g'alaba qildi. Chunki u mamlakat taraqqiyotining eng muhim muommolarini ifodalagan edi. "Yosh turklar" hokimyat tepasiga keldi.

Inqilobda xalq ommasining talablari to'la qondirilmadi. "Yosh turklar" inqilobning ommalashuvidan cho'chidilar. Bo'lib o'tgan saylovlarda "Yosh turklar" ko'pchilik ovoz bilan ham hokimyatdan to'laqonli foydalana olmadi. Ular keng omma ehtiyojlarini, tub demokratik o'zgarishlar zarurligini chuqur tushunib yetmadilar. Ular adliya, huquq, maorif sohalarida islohatlar o'tkazish yo'lidan bordilar. Ruhoniylar va ba'zi feodal doiralar bunga qarshi edilar.

Shunday qilib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiyada siyosiy tanazzul kuchaygan, xalqning ahvoli og'irlashgan, qoloqlik va savodsizlik avj olgan, diniy mutaassibliklar va xurofotlar keng quloch yoygan davr edi. Shuning bilan birga,

²⁷ Tuncay.Ö. Türk Milletinin Büyük Önderi Atatürk. Ankara 1998. –B. 15,

mamlakatda sog'lom fikrlaydigan, demokratiya va tenglik g'oyalarini ilgari suradigan qatlam ham shakllanib borar edi. Biz buni "yosh turklar", tarixiy manbalar, asarlar, ba'zi olimlarning dunyoqarashlaridan ilg'ab olishimiz mumkin. Ushbu g'oyalar natijasi o'laroq, mamlakatda qoloq sulton hokimiyatiga chek qo'yildi va davlatda islohotlar davri boshlanib ketdi. Mustafo Kamol Otaturkning maydonga chiqishi bilan ko'plab muammoli vaziyatlar o'z yechimini topdi. To'g'ri, Mustafo Kamol Otaturk harbiy edi va harbiy rejimga ko'proq e'tibor qaratishi ham tabiiy bir hol edi, lekin, shu narsa aniqki, jamiyatga ayni shu davrda mustahkam intizom ham zarur edi va buni Mustafo Kamol Otaturk amalga oshirish rejasini tuzdi.

Bu jarayonlarni amalga oshirish juda ko'p mehnat talab qildi, lekin hozirgi Turkiyaning shu holatga, shu darajaga yetib kelishiga albatta bu jarayonlarning ta'siri bo'lgan

2. Ziyo Go'kalpning hayoti va ijodi, uning ma'naviy merosi

“Bedenimin babasi Ali Riza Efendi, Heyecanlarımın babası Namık Kemal, fikirlerimin babası Ziya Gökalp'tır” M.K.Ataturk

Turkiya o'z tarixida qoloq davrni boshdan kechirayotgan davrda uni bu botqoqlikdan olib chiqish zarur edi. Bu ishni inson jismoniy kuch bilan emas, balki g'oya yordamidagina amalga oshirishi mumkin edi. Aynan ushbu haqiqatlarni anglab yetgan, shuning bilan birga kerakli g'oyalarni targ'ib etishga uringan mashhur turk shoiri, faylafusi va mashhur jamiyatshunosi, davlat arbobi Mehmet Ziy

o Go'kalp 1876-yil, 23-mart kuni Diyorbakrning Chermek mavzesidagi mahalliy gazetada ishlovchi Tevfik Beyning xonadonida dunyoga keldi. Turkclar tili bilan aytganda, “turk kishisini” jamiyatshunoslik bilan tanishtirgan kishilardan biri, bu Ziyo Go'kalp sanaladi. U Turkchilik oqiminig eng buyuk yetakchisi sifatida Turk ma'naviyati va siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan shoir, mutafakkir, siyosatchi va jamiyatshunos, deb bermalol ayta olamiz. U Turkchilik, “Turkiy olam birligi” g'oyalarinig asoschisi, barcha turk xalqi milliy-ozodlik harakatlarining g'oyaviy rahnamolaridan biridir. Ziyo Go'kalpni taniqli zamondoshimiz turk faylasufi Doktor Ibrohim Kafesh o'g'li shunday deb ta'riflagan : “Hozirgi Turkiya ufqlarida ikki bayroq: Otaturk va Ziyo Go'kalp har doim balqib-to'lg'anib turadi”.²⁸ “Hozirgi zamon va inqilobchi Turkiyasining “g'oyaviy-ma'naviy” me'mori Ziyo Go'kalpdur”.²⁹ U yoshligidan boshlab, sultonlik tuzumi, o'rta asrchilik bilan kurashga bel bog'lagan. U Turkiyada demokratik tuzum o'rnatish, yevropacha demokratik taraqqiyot yo'liga olib chiqish uchun kurashga bel bog'lagan, butun umri bo'yi kurash olib borgan. Ilk ta'limni Diyorbakir maktablaridan, islom haqidagi lik bilimlarni esa, islom huquqidan habardor bo'lgan amakisidan oldi. 19 yoshida Istanbulga keldi va Baytar Maktabiga (Veterinariya kolleji) xujjat topshirdi.³⁰ Keyinchalik Yosh turklarining qarashlaridan ilhomlangan Go'kalp, 1885-yilda Istanbulda mashhur bo'lgan

²⁸Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994 –b. 4.

²⁹ O'sha asar.

³⁰ Alaaddin Korkmaz Ziyo Go'kalp aksiyonu mesrutiyet ve cumhuriyet uzerindeki tesirleri.T.: 2000. –B. 12.

tashkilot Ittihad va Taraqqiyot jamiyatiga a'zo bo'ldi. 1898-yilda qamoqqa olindi. Mahbuslik bir yildan so'ng tugab, u tug'ulib o'sgan shahriga surgun qilindi. U amakisining vasiyatiga ko'ra, uning qizi Vejehga uylandi. Undan Sedat ismli bir o'g'il va Shehina, Hurriyat, Turkan ismli uch qiz ko'rdi. Bu yillarda Parijda surgunda bo'lgan Yosh Turklar fransuz jamiyatshunos sotsiologlaridan juda qattiq ta'sirlanishgan edi.

Ziyo Go'kalp, Yosh Turklardan keyin, 1908-yilda Ittihad va Taraqqiyot firqasining Diyorbakirdagi yetakchisiga aylandi³¹. Bir yildan so'ng, firqaning Selanikdagi markaziy hayyat uyi tayinlandi. Go'kalpga partiyaning xususiyatini aholiga tushuntirish va yoshlarni partiyaqa jalb qilish vazifasi yuklatildi. 1915-yilda Istanbul Universitetida Ziyo Go'kalp birinchi jamiyatshunos (sotsiolog) bo'yicha professor bo'ldi.³² U Istanbulni Turkiyadagi sotsiologik ishlari va faoliyati uchun markaz holiga keltirar ekan, o'z faoliyatini 1919 yilgacha Adabiyot fakultetida davom ettirdi. Birinchi Jahon urushida Usmonli davlatini mag'lubiyatidan so'ng, hamma davlat mansablaridan olindi. 1919-yil Universitetda inglizlar tomonidan qo'lga olinadi. To'rt oy mahkamada so'roqlanib, keyinchalik hamfikrlari bilan birgalikda Maltaqa surgun qilingan. Surgunda bo'lsada hamfikrlarini topib siyosat va falsafadan dars bergan. Go'kalp 1921-yilda Otaturkning eng yaqin tarafdorlari sifatida Diyorbakirga qaytarildi va milliy yetakchilarga yo'l ko'rsatish maqsadi bo'lgan jamiyatshunoslikka oid maqolalar nashr qiladigan bir kichik majmuaning mudiri qilib tayinlandi.³³ 1922-yilda Anqarada Madaniyat va Jamoat ishlari vazirligiga mudir bo'lib tayinlandi va u yerda uning mashhur asari "Turkchilikning asoslari" dunyoga keldi. 1923-avgust oyida ikkinchi chaqiriq Turkiyaning Buyuk Millat Majlisida Ziyo Go'kalp, Otaturk tomonidan Diyorbakirning vakili sifatida tayinlandi. Anqarada joylashgan Ziyo Go'kalp, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bilan shug'ullanib, dunyo klassik durdonalarini tarjima qilish bilan mashg'ul bo'ldi. Bu davrlarda Turk jamiyati

³¹ Hasan Ali, "Mütefekkir Gökalp'ın En Büyük Hizmetleri", Millî Mecmua Ziya Gökalp Nüshası, Teçrinisani 1340(1924), -B.128.

³² Alaaddin Korkmaz Ziya Go'kalp aksiyonu mesrutiyet ve cumhuriyet üzerindeki tesirleri.T.: 2000. –B. 20.

³³ Tuncay.Ö. Türk Milletinin Büyük Önderi Atatürk. Ankara.1998. –B. 22.

uchun eng ahamiyatlisi va kuchli tasiriga egasi “pozitivizm” oqimi bo’ldi. Turkiyaga pozitivizm dastlab, to’g’ridan-to’g’ri falsafiy oqim sifatida kirib kelmadi. G’arbdan keltirilgan adabiyotlar, g’arb faylasuflarining tarjima qilingan asarlari, muhojir ziyolilar, fransuz darsliklari asosida turklarning ijtimoiy hayotiga singa boshladi. Ijtimoiy harakatlarda, xalq hayotida, fan, san’at sohasida pozitivizmning ta’siri yaqqol ko’rinib qoldi. Turk pozitivizm namoyandalari yetishib chiqdi: Ahmet Riza, Husayn Jahit, Tevfik Fikret, Beshir Fuad, Ahmet Shuayb, Salih Zekil va boshqalardir.³⁴ Ularning qarashlarida klassik pozitivizmning g’oyalari aks etgan edi.

Turkiyaga pozitivizm g’arbda o’qib tahsil olib kelayotgan yosh turklarning ma’rifatparvarlik g’oyalarining ta’siri ko’zga tashlanadi. Mamlakatda fransuz adabiyoti, madaniyatiga alohida ahamiyatga ega bo’ldi. Natijada Turkiyada g’arb madaniyatiga moyillik paydo bo’ldi. An’anaviy falsafa muammolariga turk ziyolilari orasida qiziqish uyg’ondi. Ayrim guruhlarda materialistik va ateistik qarashlar yuzaga chiqdi. Bu holat mamlakatda kechayotgan ijtimoiy o’zgarishlarda ta’sir etmasdan qolmadi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida mamlakatda mavjud tuzumni o’zgartirishga bo’lgan barcha saiy-harakatlarda pozitivizm mafkura rolini o’ynadi. Shuning uchun turk ziyolilarining qarashlarida G’arb falsafasining ta’siri kuchayib bordi. Ularda g’arbona madaniyat, tafakkur va ijtimoiy fikr shakllandi. Turk ma’rifatparvarlarini, asosan, fransuz madaniyati, ilm-fan yutuqlari ilhomlantirgan edi. Ular mamlakatda qilinishi kerak bo’lgan o’zgarishlarida pozitivist faylasuflarning ta’limotlarinni g’oyaviy manba qilib oldilar. Mamlakatda o’tkazilgan islohotda fransuz ijtimoiy hayoti model qilib olindi. Natijada xalqning hayotida, mafkuraviy harakatlarda, ijtimoiy hayotda, fan, san’at sohasida pozitivizmning ta’siri yaqqol ko’rinib qoldi. Ziyo Go’kalpni ham aynan shu jamiyat ulg’aytirdi. U ham Fransuz adabiyoti va ijtimoiy fikr rivojidan

³⁴ <http://www.egitim.aku.edu.tr>. Süleyman Karataş, Osmanli eğitim sisteminde batılılaşma

ilhomlangan³⁵. G'arb dunyosi falsafa va jamiyatshunosligiga keyingi uch-to'rt asr mobaynida mislsiz e'tibor berib va o'z hayotlarini shu fanlarning yutuqlari asosiga qurib, hayratomuz taraqqiyotga erishdi. Bugungi kunda ham yangidan yangi taraqqiyot yo'llari va imkoniyatlarini ochmoqdalar.

XX asrdan boshlab inson muammosi, insonning jamiyatdagi o'rni, mavjudlik masalalari falsafada bosh muammo sifatida ko'tarila boshlandi. XX asrda bo'lib o'tgan bunday voqealar turk ijtimoiy fikriga ham oz tasirini ko'rsatdi. Yozuvchilar o'rtasida real voqelikni yozishdan ko'ra borliqni, inson hayotini va qadrini ko'rsatib berishga harakat kuchaydi. Go'kalp ham ma'na shu g'oyalar bilan yo'g'rilgan falsafiy asarlar yozib qoldirdi. U umri davomida bir qancha siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan asarlar, yosh turklarni ilhomlantiradigan jo'shqin she'rlar yozdi. Ular quyidagilardir:

- “Şiirler ve halk masalları” – “Sherlar va xalq masallari”, 2 ta bo'limdan iborat;

- “Altın ışıık”- “Oltin nuri”, (1923);

- Ziya Gökalp'ın Yazarlık Hayatı “Ziyo Go'kalpning yozuvchilik hayot”,(1956);

- Ziya Gökalp Külliyyatı, “Ziyo Go'kalp kulliyoti”;

- Türkçülüğün Esasları, “Turkchilik asoslari”, (1923);

- Türk Töresi, “Turk to'rasi”, (1923);

- Doğru Yol, “To'g'ri yo'l”, (1923).

- Yeni Hayat, “Yangi Hayot”, (1923).

Bu kabi asrlarlari uning hayotlik chog'ida nashr etilgan. Lekin uning vafotidan keyin, uning yaqinlari va yirik mutaxassislar tomonidan ham uning ijod na'munalari qayta ishlanib, nashr etildi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi.

- Ziyo Go'kalp'in mektubleri (“Ziyo Go'kalp xatlari”) (1956);

³⁵ Hasan Ali, “Mütefekkir Gökalp'ın En Büyük Hizmetleri”, Millî Mecmua Ziya Gökalp Nüshası, Teçrinisani 1340(1924), -B.48.

•Ziya Gökalp'ın ilk yazı hayatı; (1956); “Ziyo Go’kalpning dastlabgi yozuvchilik davri”.

- Ziya Gökalp'ın Doğumu'nun 80y; “Ziyo Go’kalp Tug’ilganining 80 yilligi”
- Diyarbakırı Tanıtma Derneği (1956);
- Çınaraltı. (Chinor osti) (1939);
- Fırka Nedir? (Gap nima?) (1947);
- Ziya Gökalp Diyor ki. (Ziyo Go’kalp aytadiki) (1950);
- Ziya Gökalp'ın neşredilmemiş yedi eseri ve aile mektupları (1956);
- Ziya Gökalp'ın Yazarlık Hayatı (1956);
- Ziya Gökalp Külliyyatı (1-kitob she’rlar va xalq maqollari,1952); 2-kitob Limni va Malta Maktublari;1965);
- Ziya Gökalp'ın Yazarlık Hayatı (1956);
- Terbiyenin Sosyal ve Kültürel Temelleri (1973).
- Felsefe Dersleri. (1919-1921).

Tanıtan: Bahar Dervişcemaloğlu

ZİYA GÖKALP’IN KAYIP ESERİ NİHAYET BASILDI:

FELSEFE DERSLERİ

Kültür Hayatımız Son Yüzyılın En Önemli Eserlerinden Birine Kavuştu:

Türk düşünce tarihinin en büyük isimlerinden biri olan, Milli Edebiyat akımının teşekkülünde çok önemli bir rol oynayan ve Türkiye’de sosyolojinin kurucusu olan Ziya Gökalp, fikirlerini dile getirmek için makale, şiir, manzum destan, masal gibi türlerde birçok eser vermiştir. Ancak kaleme alınışından 85 yıl sonra kitaplaşan Felsefe Dersleri, hiç şüphesiz, Gökalp’ın bilim, felsefe, psikoloji, sanat, dil, ahlak vb. konularda düşüncelerini sistematik bir biçimde dile getirdiği, her açıdan ayrı bir yere sahip, eşsiz bir eserdir. Geleceğin bilim hayatında Türk felsefesi, Türk kültürü başlıca hareket noktalarını daima bu kitapta bulacaktır. Genç bilim adamlarımızın sistematik düşünce dünyasının son büyük temsilcisi olan Gökalp’ın bu kitabından öğreneceği çok şey vardır. Ziya Gökalp’ın belki de en

önemli tarafı sistematik düşünmeyi bilmesi ve gerçek bir bilimsel düşünme tarzına sahip olmasıdır. Mustafa Kemal Atatürk'ün "Bedenimin babası Ali Rıza Efendi, Heyecanlarımın babası Namık Kemal, fikirlerimin babası Ziya Gökalp'tır" sözünden de anlaşılabilir olduğu gibi, Gökalp'ın Türkiye Cumhuriyeti'nin düşünsel temeline çok büyük katkılarda bulunduğu aşîkardır.

E`lon qilgan: Bahor Dervishjemalo`g`lu.Ziyo Go`kalpning yuqolgan asari
nashr qilindi.

Madaniy hayotimizning oxirgi yuz yilligida eng muhim asarlardan biriga
erishdik.

Türk dunyo qarashining eng buyuk vakillaridan, jamiyatshunos va faylasuf Ziyo Go`kalp fikrlarini bayon qilish uchun o`zining ko`plab maqola, she`r, doston, masal kabi janrlarda bir qancha asarlar yozgan. Sakson besh yildan keyin kitob holda nashr qilingan Falsafa Darslari, shubhasiz Ziyo Go`kalpning bilim, falsafa, psixologiya, san`at, til, axloq, mantiq, metafizika va boshqa mavzularda dunyoqarashini tizimli bir holatda ifoda etgan, mukammal bir asardir. Kelajak bilim hayotini, Türk falsafasi, türk madaniyatini qanday holatda olib borish haqida bu kitobdan ma`lumot olamiz.

Ziyo Go`kalpning bu kitobidan o`rganiladigan narsalar juda kopdir. Chunki, Ziyo Go`kalpning bu asarida asosiy e`tebor tushuncha va dunyoqarashni tizimli holatga keltirgan holda o`rganishni tadbiq etadi. Mustafo Kamol Otaturkning "Vujudimning otasi Ali Riza Efendi, Hislarimning otasi Namik Kemal, Fikrlarimning otasi Ziyo Go`kalpdır" ³⁶. Bu tarifdan bilishimiz mumkinki, Ziyo Go`kalpning Turkiya davlati uchun asosiy tamal toshini qo`yganlardan biri hisoblanadi.

Doğu dünyasıyla Batı dünyasının felsefe ve bilimini eşsiz bir şekilde kendisinde toplayan bu zeka, bu kitabıyla gelecekte de gerçek bilime gönül vermiş aydınlarımıza yol gösterecektir.

³⁶ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/ Xuseyin.R. Ziyo Go`kalp.Felsefe Dersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdorov tarjiması)

Sharq dunyosi bilan G`arb dunyosining falsafiy bilimini beqiyos bir shaklda o`zida to`plagan, bu kitobi bilan kelajakda ham haqiqiy bilimga ko`ngil qoyishga yo`l ochib beradi³⁷.

Ali Utku ve Erdoğan Erbay tarafından yayına hazırlanan Felsefe Dersleri, Ziya Gökalp'in Malta'da sürgün bulunduğu yıllarda (22 Eylül 1919-30 Nisan 1921) eski nazıların ve mebusların da aralarında yer aldığı kader arkadaşlarına verdiği felsefe derslerinin notlarından oluşuyor. Gökalp'in kendi el yazısıyla kaleme aldığı on iki defterden oluşan "Felsefe Dersleri"nin yayınlanış öyküsü de en az kitap kadar ilgi çekici.

Ali Utku va Erdog`an Erbay tomonidan nashrga tayyorlangan, Falsafa Darslari Ziygo Go`kalpning Maltaga surgun qilingan (1919 - 1921) yillarda yozilgan. Ziygo Go`kalpning bu asari o`n ikki daftardan iborat bo`lib, "Falsafa Darslari naqadar kerakli ekanligini va buni keng tarqalishi haqida bayon qiladi"³⁸.

Gökalp'in ölümünden sonra, aile üyelerinin teklifiyle eseri satın alan Tarih Kurumu, hazırlanması planlanan "Ziya Gökalp Külliyyatı" çerçevesinde bu eseri yayınlamak istemiştir. Ne yazık ki külliyyat projesi bir türlü gerçekleşemeyince, bu değerli eser uzun bir süre Türk Tarih Kurumu'nun arşivinde beklemiştir. 1986 yılında bu eser, Tarih Kurumu'nun kütüphanesine aktarılarak araştırmacıların kullanımına açılmıştır. (Bu konuda ayrıntılı bilgi için Felsefe Dersleri'nin önsözünde yer alan "Ziya Gökalp İçin: Kayıp Eserin Yazgısı Üzerine" başlıklı yazıya bakınız.)

Bu asarni Ziygo Go`kalpning o`limidan keyin uning oilasi, "Ziygo Go`kalp kulliyoti" ni nashrga tayyorlash uchun tayyorgarlik ko`rayotgan, Tarix jamiyatiga topshirdi. 1986 – yilda Tarix jamiyati bu asar bilan shug`ullana boshladi. Surgun davrida Ziygo Go`kalp bu asari haqida, yonidagi faqat askarlargagina emas balki oddiy fuqarolarga ham, tushintirgan hamda ular bergan savollarga javob bergan³⁹.

³⁷http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Xuseyin.R.ZiyaGo'kalp.FelsefeDersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdammov tarjimasi)

³⁸http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Xuseyin.R.ZiyaGo'kalp.FelsefeDersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdammov tarjimasi)

³⁹ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Xuseyin.R.ZiyaGo'kalp.FelsefeDersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdammov tarjimasi)

Ziya Gökalp'in felsefe derslerine katılmış olanların (Hüseyin Hüsnü Paşa, Ahmed Bey, Mahmud Paşa, Hüseyin Cahit...) anlattıklarına göre Gökalp, Malta'da arkadaşlarının ricalarını kırmayarak her gün bir-iki saat süren, sadece askerlerin değil, sivillerin de katılabildiği, sorular sorabildiği; Ziya Gökalp'in Türk tarihinden Bergson ve Durkheim'in (1858-1917) felsefelerine kadar pek çok konunun ele alındığı konferanslar vermiştir. Üstün bir tahlil ve tasnif kuvvetiyle en zor meseleleri bile son derece açık ve basit bir biçimde anlatabilen Gökalp'in dersleri büyük bir ilgi ve hayranlıkla takip edilmiştir.

Ziyo Go'kalpning falsafa darslariga qatnashganlar (Huseyin Husni Pasho, Ahmed Bey, Mahmud Posho, Huseyin Jahid....) aytishlariga ko'ra Go'kalp, Maltada do'stlarining iltimoslariga ko'ra har kuni bir-ikki soat ma'ruza qilgan, bunda faqat harbiylargina emas, oddiy fuqarolar ham tinglab ko'lab ma'lumotlarga ega bo'lishgan.

Ziyo Go'kalpning falsafiy qarashlarini fransuz faylasufi Bergson qarashlaridan ta'sirlanganligini, hamda mashhur fransuz jamiyatshunosi Fransiyada sotsiologiyaga asos solgan E'mile Dyurkgeym (1858-1917) ning g'oyalari naqadar jamiyatga keraklilikini takidlagan⁴⁰.

Kitaptaki ana başlıklar sırasıyla şunlardır: Başlangıç:

İlim ve Felsefe,

Ruhiyat (Psikoloji),

Lisan ve Sanat (Dil ve Sanat),

Mantık,

Ahlak,

Ma-Bade't-Tabi'yye (Metafizik).

Kitap hakkında okuyucularımıza bir fikir verebilmek amacıyla Felsefe Dersleri'nin Mantık bölümünde yer alan İlmin ve Lisanın Birinci Şartı Tasnif başlıklı yazıdan küçük bir bölüm aktarıyoruz: Çeviriyazı:

⁴⁰http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Xuseyin.R.Ziya_Gokalp.Felsefe_Dersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdammov tarjiması)

İlmin ve Lisanın Birinci Şartı Tasnif: Tasnif, bize gayet mûnis olan tarîklerden biridir. Biz, tabî'î ve selikî bir surette birbirine benzeyen ve bizim üzerimizde aynı intibâ'ları husûle getiren vücûdları ve vâkı'aları birbirine yaklaştırarak tasnîf ederiz. Lisânın mebde'inde gördüğümüz bu tasnif, aynı sûretle ilmin de mebde'inde mevcûddur. Gerek fikirlerimize, gerek eşyâya biraz intizâm vererek ilme teveccüh edebilmek için, insanın zarûrî olan ilk cehdinden ibârettir. Tasnif, âlimlerin bütün taharrîlerinde elzem olmakla beraber, hiç birisinde nebâtât ile hayvânâtta olduğu kadar hem güç hem de fâ'ideli değildir, çünkü bu ilimlerin tedkîk ettikleri mevcûdât son derece mufassal ve son derece mütenevvi'dir.

Sadeleştirme: Bilimin ve Dilin Birinci Şartı Sınıflandırma: Sınıflandırma, bize gayet uygun olan yollardan biridir. Biz tabii ve spontane bir surette birbirine benzeyen ve bizim üzerimizde aynı izlenimleri meydana getiren varlıkları ve olguları birbirine yaklaştırarak sınıflandırırız. Bundan başka, etrafımızda gözlemlediğimiz varlıklar ve olguların açık hayallerini muhafaza etmek için de zorunlu olarak sınıflandırma yaparız. Hayatta tabiatımıza çoğunlukla rehberlik eden, bu ilk sınıflandırmalardır. Bunun sayesinde ki, özel isimler istisna olmak üzere bütün terimleri açık bir şekilde şeyler ve olgular, varlık şekilleri ve icra şekilleri arasında kurduğumuz çeşitli sınıflara tekabül eden dil de teşekkül etmiştir. Her genel isim, örneğin ağaç, çiçek, ev, başka bir grup ile benzerliğe girmeyen bir şeyler grubunu ifade eder. İyi, kötü, hoş, nahoş gibi sıfatlardan her biri de, diğer özelliklerden ayırt edilmiş olan bir özelliği ifade eder. Çalışmak, dinlenmek, düşünmek gibi fiillerden her biri de, psikolojik hayatımızın çeşitli tecellileri arasında önceden yapmış olduğumuz sınıflandırmanın birer kısmına tekabül eder. O halde çocuk, konuşmayı öğrenirken sınıflandırmayı da öğrenir.

Dilin başlangıcında gördüğümüz bu sınıflandırma, aynı suretle bilimin de başlangıcında mevcuttur. Gerek fikirlerimize, gerek şeylere biraz düzen vererek bilime yönelebilmek için, insanın zorunlu olarak ilk çabasından ibarettir. Sınıflandırma, bilim adamlarının bütün araştırmalarında zorunlu olmakla beraber, hiçbirisinde botanik ve zoolojide olduğu kadar hem güç hem de faydalı değildir,

çünkü bu bilimlerin inceledikleri varlıklar son derece ayrıntılı ve son derece çeşitlidir.

Kitobdagi asosiy bo`limlar quyidagilardir:

- Boshlang'ich,
- Ilm va falsafa,
- Ruhiyat (psixologiya),
- Til va san`at,
- Mantiq,
- Axloq,
- Mabade`t – Tabiiyye (Metafizika).

Kitob haqida bir mulohaza qilish maqsadida Falsafa darslarining, mantiq bo`limidan joy olgan, ilmning va tilning birinchi sharti, tasnif qilish, ya`ni o`tilishi haqida so`z yuritiladi.

Tog`ri yozish.

Ilmning va tilning birinchi sharti tasnifdir.

Tasnif – bizning yurakdan chiqqan g`oyalarimizni yo`lga soluvchidir.

Biz atrofimizda ro`y beradigan jarayonlarni bir- biriga, o`xshash holatlar bilan baholasak shunda atrofdagi holatlarga to`g`ri, aniq yechim topardik.

Ishlamoq, dam olmoq, tushinmoq kabi fellardan hayotimiz davomida to`g`ri tomonga yo`naltirgan holda, tadbiq qilsak va bu jarayonni amalda qo`llasak, biz tasnif qilish bosqichidan oqilona foydalangan bo`lamiz. Xuddiki, bola gapirishni o`rganarkan, tasnif qilishni ham o`rgangani kabi.

Soddalashtirish.

Bilim va tilning birinchi sharti. Sinflantirsh.

Sinflantirish bizning g`oyalarga mos keladigan yo`llardan biridir. Bu yo`l orqali biz belgilangan ishlarimiz va rejalarimizni osonroq hamda tezroq amalga oshiramiz⁴¹.

⁴¹http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Xuseyin.R.Ziya_Go'kalp.Felsefe_Dersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdamov tarjiması)

1924-yilda qisqa vaqt kasallikdan keyin davolanish uchun Istanbulga ketdi va 25-sentabrda vafot etdi. U Sulton Ahmatdagi Mahmud Turbe qabristoniga dafn etildi.

Xulosa qilib aytganda, Ziyo Go'kalp hayoti jamiyatda tanazzullar avj olgan bir davrda o'tdi. U shunday og'ir sharoitda, xalqining muammolarini ko'rdi va unga o'ziga xos yechim topishga urindi. Buni u xalqning ma'naviy dunyosini o'zgartirishda, uning dunyoqarashini o'zgartirishda va eskirib qolgan, o'z davrini o'tab bo'lgan hukumatni almashtirish kerak ekanligida, deb biladi. Biz bularni faylasufning "To'g'ri yo'l" asaridagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalaridan ham anglab olishimiz mumkin.

I bob bo'yicha xulosa

XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahvol ancha qoloq bo'lgan. Bu davrda, ayniqsa, XX asr boshlarida bo'lib o'tgan I jahon urushida mag'lublar qatoridan o'rin egallashi Turkiyaning iqtisodiy-siyosiy ahvolini juda og'ir ahvolga solib qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatdagi Sulton tuzumi asoratlaridanda og'ir vaziyatni yuzaga keltirdi.

Ziyo Go'kalp mana shunday og'ir va tahlikali jamiyatda ulg'aydi, uning dunyoqarashiga bu voqea-hodisalar ta'sir etmasdan qolmasdi, albatta. U jamiyatdagi o'rta va quyi tabaqa vakillarining ahvoliga achinadi va jamiyat hayotini o'zgartirishga harakat qiladi.

Ziyo Go'kalp bunday o'zgarishlarni hokimiyat orqali sodir etmoqchi bo'ladi va davlat hokimiyatining yuqori lavozimlarida ishlaydi. Shuning bilan birga, jamiyatni g'oyaviy yangilashga intiladi, chirib qolgan Sulton hokimiyatini qoralaydi.

G'arb jamiyati rivoji bilan qiziqadi, Fransuz yozuvchilari va faylasuflarining asarlarini o'rganadi va ushbu g'oyalarni o'z jamiyatiga tadbiq etmoqchi bo'ladi. Mustafo Kamol Otaturk amalga oshirgan inqilobda ham u nazariy va amaliy ko'mak berib turadi.

Go'kalp asarlarida, ma'naviy merosida g'arb ijtimoiy fikr rivoji va taraqqiyotining o'rni beqiyos. Uning dunyoqarashiga Fransuz jamiyatshunoslarining falsafiy qarashlari katta ta'sir o'tkazgan. Biz buni uning Bergson, Emi'le Durkseyn, Alfred Fouille, Paul Verlaine, Charles P.B. kabi fransuz sotsiolog faylasuflari falsafasini chuqur o'rganib, jamiyat haqidagi qarashlarida o'z aksini topganligi bilan ham izohlashimiz mumkin.

II bob. Ziya Go'kalpning ijtimoiy-falsafiy qarashlari

1. Ziya Go'kalpning davlat, millat, ijtimoiy tabaqa va toifalar haqidagi qarashlari

Ziya Go'kalp falsafasini o'rganar ekanmiz, uning nihoyatda serqirra inson ekanini ko'ramiz. Uning falsafasi asosida turkchilik, turk millatini yuksaltirish, umumbashariy ahamiyatli va insoniy mazmunga ega bo'ladigan umumturk sivilizatsiyasini yaratish, texnologik taraqqiyot darajasini, barqaror tinchlik va hamdo'stlik mintaqasini, hozirgi ijtimoiy taraqqiyotga turkiy xalqlarning ham ma'suliyatli ekanligini anglatish g'oyasi yotadi.

Ziya Go'kalpning falsafiy qarashlari o'z davri va bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatiga ega. Uning fikricha, "ilm, ob'yektiv va musbat bo'lganligi uchun baynalmilaldir".⁴² Bundan kelib chiqadiki, ilmda turkchilik bo'lmaydi. Biroq falsafa ilmga tayanish bilan birga, ilmiy tushunchadan tashqari, o'ziga xos tushunish tarzidir. Falsafaning obyektiv va musbat bo'lolmasligi mazkur sifatlarga ega bo'lgan ilmlar bilan uyg'un bo'lish hisobigadir. Ilm qabul qilmaydigan xulosalarni falsafa isbot qila olmaydi, ilm isbot qilgan haqiqatlarni falsafa inkor etmaydi. Falsafa ilmga nisbatan shu ikki qayd bilan bog'liq bo'lishi bilan birga, ularning tashqarisida umuman erkindir⁴³. Falsafa ilm bilan nizoga tushmagani holda, ruhimiz uchun yana umidli, yanada zavqli, yanada tasalli beruvchi, yanada

⁴² Ziya Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 121

⁴³ Ziya Gokalp ,” Ziya Gökalp Diyor ki „, (1950) , Ankara. 2006.-B.23.

ko'p saodat bag'ishlovchi butunlay yangi va original farazlarni ilgari sura oladi. Falsafaning vazifasi shu kabi faraz va qarashlarni ajratib berishdir. Bir falsafaning qiymati, bir tomondan ijobiy, ilmlar bilan hamohang bo'la olish darajasi bilan, boshqa tomondan, ruhlarga yuksak umidlar, zavqlar, tasallilar va saodatlar berishi bilan o'lchanadi. "Demak, falsafa bir tomondan ob'yektiv, boshqa tomondan sub'yektivdir. Shunga ko'ra, falsafa fan kabi baynalmilal bo'lishga majbur emas, u milliy bo'la oladi. Bundan kelib chiqadiki, har bir millatning o'ziga xos bo'lgan bir falsafasi bordir. Yana shunga e'tibor berish kerakki, ahloqda, badiiyatda, iqtisodda bo'lgani kabi falsafada ham turkchilik bo'lishi kerak".⁴⁴

Ziyo Go'kalp falsafani moddiy ehtiyojlarni zo'rlamasdan, majbur etmasdan, biror manfaat, g'arazni ko'zlamasdan, g'oyaviy bir tushunchadan iborat, deb bilib, bunday yangicha tushunchani "spekulyatsiya", deb ataydi. Turkchada uni "muaqqala", deb nom beradi. Mutafakkir fikricha, bir millat urushlardan qutulmaguncha va iqtisodiy yuksalishga erishmaguncha uning ichida "muaqqala" bilan shug'ullanadigan shaxslarni yetishtira olmaydi. U ta'kidlaydiki, ming turli dardi bo'lgan bir millat yashash uchun o'zini mudofaa qilishi, xatto ovqat yeyish va ichish uchun tushunishga muhtojdir. "Tushunish uchun tushunish" faqat bu hayotiy tushunish ehtiyojlaridan qutulgan va chalishmasdan yashay olgan insonlargagina nasib qiladi. Turkclar shu paytgacha qadar bunday bir xuzur istirohatga moil bo'lmaganliklari uchun ularning ichida hayotni aql ko'zi bilan tushuntirib bera oladigan oqillar juda kam yetishganini, ular ham tushuntirish yo'llarini bilmaganliklaridan mavkuralarini yaxshi idora qila olmadilar. Aksariyat darveshlik va qalandarlikka yuz tutdilar, deya ta'kidlydi⁴⁵.

Turklar orasida shu paytgacha oz faylasuf yetishganligini turklarning aqliy mushohadaga iste'dotsiz ekanliklarida, deb bilmaydi. Bu yetishmovchilik turklarning hanuzgacha musbat ilmlarga, huzur va istirohatga, aqliy mushohadani mumkin qiladigan bir saviyaga yuksalmaganliklari bilan izohlansa, yana ham to'g'ri bo'ladi deydi. "Turkchilik turk millatini yuksaltirish deganidir. Shunday

⁴⁴ Alaaddin Korkmaz Ziyo Go'kalp aksiyonu mesrutiyet ve cumhuriyet uzerindeki tesirleri.T.: 2000. –B.20

⁴⁵ Ziyo Gökalp'ın Yazarlık Hayatı Ankara. 1956. – B. 16.

bo'ladigan bo'lsa, turkchilikning mohiyatini anglash uchun birinchi navbatda "millat" nomi berilgan birlikning mohiyatini aniqlab olish lozimdir".⁴⁶ Go'kalp millat haqidagi turli xil qarashlarni tadqiq qiladi.

Irqiyl turkchilar fikriga ko'ra, deydi u, millat "irq" deganidir. "Irr" so'zi asosan hayvonshunoslik fani istihlohlarida har qanday hayvon navi, ichki tuzilishi o'z sifatlariga ko'ra, ma'lum bir turga kirishini aytib, bu turlarga "irq" nomi berilishini uqtiradi. Misol o'rnida, otlar navlarining arab irqi, moior irqi kabi nomlarga ega bo'lgan turkum mijoziy, tashrihiy tuzilishi bilan farq qilishini ko'rsatadi.

Insonlar orasida ham qadim-qadimdan beri oq irq, qora irq, sariq irq, qirmizi irq nomlari bilan ataladigan to'rt irq mavjud bolib, bu tasnif, qo'polroq tasnif bo'lsada, hozirgi o'zining muayyan qiymatini saqlab qolayotganini uqtiradi.

Yana u irqlar haqida quyidagilrni gapirib o'tadi. "Jahon fani, Yevropadagi odamlar boshlarining shakli va sochlari bilan ko'zlarining rangiga ko'ra, uch irqqa ajratadi: uzun bosh suyakli, yorqin kashtan sochli: uzun bosh suyakli, qoracha, yassi bosh suyakli.

Shu bilan birga, Yevropadagi hech qaysi millat mazkur mijozlardan faqat bittasidan iborat emasdir. Har bir millatning ichida bu uch irqqa mansublikning turli nisbatlarini o'zida mujassam etgan shaxslar mavjuddir. Hatto bitta oilaning o'zida ham bir inisi uzun bosh suyakli, yorqan kashtan sochlisi bo'lishi, boshqalari esa, uzun bosh suyakli bo'lishi mumkin"⁴⁷.

Gokalp fikricha, bir zamonlar mazkur mijozning tashrihlari bilan birga ijtimoiy xislatlar orasidagi munosabatlardan iborat bo'lishini da'vo qilardi. Biroq ko'pgina ilmiy tanqidlar bilan va ayniqsa, shaxsan insonshunoslar orasida eng ulug' bir obro'ga ega bo'lgan Mepnurer ismli olimning tashrixiy (anatomik) sifatlarining ijtimoiy xulqlar tomonidan hech bir ta'sirlanmasligini isbot qilishigina mazkur eski da'voni tamoman yo'qotdi. Irqning shu tarzda ijtimoiy xislatlar bilan hech qanday aloqasi qolmagan ekan, ijtimoiy xulqlarning majmui bo'lmish millat

⁴⁶ Ziyu Gokalp, Turkchililik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 4

⁴⁷ Ziyu Gokalp, Turkchililik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 15

bilan ham hech qanday aloqasi yo'q ekanligini bilishi lozimligini aytadi va millatni boshqa tomondan tadqiq qilish zarurligini uqtiradi.

Qavmiy turkchilik esa, millatni “qavm” guruhi bilan qorishtirib yuborishdir. Qavm (millat, qabila, xalq) bir onadan, bir otadan kelib chiqqan, hech qanday begona aralashmagan qondosh bir birlik deganidir. Qadimgi jamiyatlar umuman toza va begonalar bilan aralashmagan bir qavm bo'lganlar, deb tasavvur qilar edilar. Holbuki, jamiyatlar tarixgacha bo'lgan zamonlarda ham o'z qavmida toza emasdilar. Janglarda asir bo'lib tushish, qiz olib qochish, jinoyatchilarning urug'dan qochib, boshqa urug'ga qo'shilishi, nikohlanish (uylanish), muhojirlikda bo'lish, aralashib qo'shib ketish, kabi hodisalar doimo millatlarni qorishtirib yuborar edi. Fransuz olimlaridan Kamilla Julian bilan Mole (Meillet) juda qadimgi zamonlarda ham tamomila toza bir qavmning bo'lishi mumkin emasligi to'g'risidagi fikrni ilgari surgan edilar.⁴⁸ Tarixdan avvalgi zamonlarda ham sof bir qavm bo'lmagan ekan, hozirgi tarixdagi millatni qaysi sababga ko'ra, o'ta toza bir qavm bo'lishini talab qilishimiz bir ayb bo'lmaydimi? Bundan tashqari, sotsiologiya ilmiga ko'ra shaxslar dunyoga kelar ekan, g'ayri-ijtimoiy, ya'ni ijtimoiy tarzda bo'lmagan holda dunyoga keladilar. Ya'ni, ijtimoiy vijdonlardan hech birini taqozo qilgan holda, talab qilmaydilar. Masalan, diniy, lisoniy, axloqiy, badiiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy vijdonlardan hech qaysi birini taqazo etmaydilar. Hammasini keyinchalik tarbiya yo'li bilan jamiyatdan oladilar. Demak, ijtimoiy xislatlar uzviy tarzda nasl bilan o'tmaydi, balki tarbiya yo'li bilan o'tadi. Unda qavmiyatning milliy hulq-atvori nuqtai nazaridan hech qanday roli yo'q.

Ziyo Go'kalp fikricha, qavmiy tozalik hech bir jamiyatda bo'lmaganidek, qadimgi jamiyatlar qavmiyat mafkurasining ro'yobga chiqarishga intilardilar. Buning sababi diniy edi. Chunki u jamiyatlarda ma'buda jamiyatning eng birinchi bobosi edi. Bu ma'buda faqat o'z zurriyotidan bo'lganlargagina ma'budlik qilishni istar edilar. Yotlarning o'ziga ibodat qilishlarini, o'z mahkamasi qonunlariga ko'ra, muhokama bo'lishlarini istamas edi. Ana shunga binoan, jamiyatning ichiga turli yo'llar bilan kirib olgan bir qator kishilar mavjud bo'lishi bilan birga, butun

⁴⁸ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Xuseyin.R

jamiyat faqat ma'budaning zurriyotlaridan tarkib topishi e'tiborga olinar edi. Qadimgi yunon polislarida , islomgacha bo'lgan arablarda, qadimgi turklarda, umuman barcha xalqlardagi urug'-qabila (el)chilik davrida ana shunday yolg'on (soxta) urug' jamoasini kuzatilishini ta'kidlaydi.

Shunisi ham bor ediki, ijtimoiy taraqqiyotning ana shu bosqichida yashagan millatlar uchun qavmiyatga erishish mafkurasini ko'zlash tamomila tabiiy bir harakat bo'lgani holda, bugungi bosqichda o'ziga xos bir kasallikdir. Chunki ana shu bosqichlarda bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy birdamlik faqat dindoshlik aloqasidan iborat edi. Dindoshlik aloqasiga tayanilganda, tabiiydirki, ijtimoiy birdamlikdan kelib chiquvchi qondoshlik bo'ladi.

Keying ijtimoiy bosqichda esa, ijtimoiy birdamlik madaniyatdagi ishtirok etish bilan belgilanadi. Madaniyatning qabul bo'lishi tarbiya vositasi bilan bo'lganligi uchun qondoshlik bilan hech bir aloqasi yo'q.

Jog'rofiy turkchilik vakillari fikrlariga ko'ra, "millat deb ayni bir o'lkada o'troq yashayotgan aholining majmuiga aytiladi. Masalan, bir Eron millati, bir Shveytsariyada olmon, fransuz, italyandan iborat bo'lgan uch millat, Belgiyada aslan, fransuz bo'lgan vallonlar bilan ataladigan to'rt millat bordir. Bu muhtalif jamiyatlarning lisonlari va madaniyatlari bir-biridan farq qilganligi uchun umumiy (yoki ijtimoiy) hayotlariga "millat", deb nom berish to'g'ri bo'lmaydi".⁴⁹

Ba'zan biron o'lkada tajovvuzkor millatlar bo'lganidek, ba'zan biron-bir millat tajovvuz qilayotgan o'lkalarga yoyilib ham ketadi. Masalan, O'guz turklarini bugungi Turkiyada, Ozorbayjonda, Eronda, Xorazm o'lkasida uchratishimiz mumkin.

Bu birliklarning lisonlari va madaniyatlari umumiy bo'lgan holda, ularni alohida-alohida millatlar deb, tushunish to'g'ri bo'ladimi?

Usmonlichilar fikriga ko'ra, millat Usmonli imperatorligida yashagan barcha tobelarga taaluqlidir. Holbuki, bir imperatorlikning barcha tobelarini bir butun millat, deb tushunish katta xatolikdir. Chunki bu bo'tqaning ichida mustaqil madaniyatlarga molik bo'lgan tajovvuzkor millatlar mavjud. Islom ittihadchilari

⁴⁹ Ziyoy Gokalp, Turkchilik asoslari. (turkchadan A.Zohidiy tarjimasi) T.: GFNTI. 1994. –B.16

ta'biricha, millat barcha musulmonlarning majmui demakdir. Muayyan bir dinda bo'lgan insonlarning majmuiga "ummat" nomi beriladi.

U holda, musulmonlarning majmui ham ummatdir. Bir til va madaniyatga birlashgan millat uyushmasi esa, tamomila boshqa bir narsadir.

Individualistlar esa, millat bir damning o'zini mansub deb tan olgan har qanday jamiyatdir. Darhaqiqat, har bir kishi o'zini zohiron, u yoki bu jamiyatga mansub ekanligini aniqlashda erkinman, deb o'ylaydi. Holbuki, kishilarda bunday erkinlik va mustaqillik yo'q. Chunki insondagi ruh tuyg'ular bilan fikrlardan tarkib topadi. Ya'ni ruhiyatchilar aytishlaricha, hissiyotimiz asildir, fikriy hayotimiz unga bog'liqdir. Ana shunga ko'ra, ruhimizning sog'lom bir holatda bo'la olishi uchun fikrimiz, hislarimizga tamomila uyg'un bo'lishi lozimdir. Fikrlari hislariga tamomila muvofiq bo'lmagan va asoslanmagan har bir odam ruhan xastadir. Bunday odam hayotda baxtli bo'lolmaydi. Masalan, o'z hissiyotiga ko'ra, kuchli dindor bo'lgan har bir yosh o'zini fikran dinsiz deb tushina boshlasa, ruhi qandaydir bir muvozanat, osoyishtalik holatida bo'la oladimi? Shubhasiz yo'q! Shuningdek, har bir kishi hislari vositasi bilan muayyan bir millatga mansubdir. Ana shu millat u fard ichida yashaydigan va tarbiyasini o'z zimmasiga olgan jamiyatdan iboratdir. Chunki, bu shaxs o'ziga tarbiya vositasida jamiyatga xos bo'lgan barcha tuyg'ularni olib, mujassam etgan, tamomila unga xosdir. Ana shuning uchun ham odam faqat jamiyatda yashasagina baxtli bo'la oladi. Boshqa bir to'daga qo'shilsa, sog'inishga tushadi, xastalanadi, o'z xissiyoti mushtarak, umumiy bir jamoaga kirish uchun hasratlar chekadi. Bu bir odamning xoxlagan vaqtda millatini o'zgartira olishi o'z qo'lida emasdir. Chunki, milliyat ham tashqi bir borliqdir. Inson milliyatini jaholatda bo'lganligini to'liq anglamas ekan, keyinchalik, izlanishlar va haqiqatni tadqiq qilish vositasi bilan kashf eta oladi. Biroq bir firqaga kirganidek, sof iroda kuchi bilan u yoki bu millatga o'zini mansub, deb bilishi mumkin emas.

“Unday bo’lsa, millat o’zi nima? Irqiy, qavmiy, jo’g’rofiy, siyosiy, irodaviy quvvatlar bilan muvofiqlashtiriladigan va hukmlar chiqaradigan boshqa yana qanday yo’limiz bor?”-deya Go’kalp savol beradi.⁵⁰

Ziyo Go’kalpning jamiyat haqidagi qarashlarini gapiradigan bo’lsak, uning bu sohadagi kuzatish va ilgari surgan g’oyalari, nafaqat o’sha davr uchun, balki bugungi davr uchun ham juda muhim sanaladi.

Ijtimoiyat ilmi bilan shuni isbot qiladiki, bu yo’l tarbiyada, madaniyatda, ya’ni tuyg’ularda ishtirok etishdir. Inson eng samimiy, eng qalbdan chiqadigan tarbiyaning avval boshlaridanoq ola boshlaydi. Hali beshikda ekan, eshitgan “alla”lar bilan ona tilining ta’siriga uchraydi. Bundan tashqari eng ko’p sevgan tilimiz ona tilimizdir. Ruhimizda o’rnashadigan barcha diniy, ahloqiy va badiiy tuyg’ularimizni ana shu til vositasida qabul qilamiz. Zotan, ruhimizning ijtimoiy hislatlatlari ana shu diniy, ahloqiy va badiiy tuyg’ulardan iborat emasmi? Ularni bolaligimizda qaysi muhitdan olsak, keyinchalik, ana shu muhitda yashagimiz keladi. Boshqa bir jamiyatning ichida yanada kattaroq bir to’qchilikda yashashimiz mumkin bo’lganda ham jamiyatimiz ichidagi qashshoqlikni baribir undan afzal ko’ramiz. Chunki, do’stlar ichidagi bu qashshoqlik begonalar orasidagi u to’kinchilikdan ham ko’proq bizni baxtli qiladi. Zavqimiz, vijdonimiz, ishtiyoqimiz bularning hammasi biz yashayotgan va tarbiyasini olayotgan jamiyatnikidir. Ularning aks-sadosini ham shu jamiyat ichida eshita olamiz.

Jamiyatdan ayrilib boshqa bir jamiyatga mansub bo’la olmasligimizda ham katta bir ma’no bor. Bu ma’no bolaligimizda jamiyatdan olgan tarbiyamizni ruhimizdan chiqarib tashlashi mumkin emasligidir. Ana shuning iloji yo’qligi uchun ham biz eski jamiyat ichida qolishga majburmiz⁵¹.

Bu so’zlardan anglashilmoqdaki, millat na irqiy, na qavmiy, na geografiy, na siyosiy va bir irodaviy birlik emasdir. Millat til,din, ahloq va badiiy jihatlariga ko’ra, mushtarak bo’lgan, ya’ni muayyan tarbiyani olgan odamlardan tarkib topgan bir birlikdir. Turk kishisi buni “tili-tilimga, dini-dinimga tutash”, deb ifodalaydi⁵².

⁵⁰ Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 17

⁵¹ Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 17

⁵² Ziyo Gokalp, ” Ziya Gökalp Diyor ki „,(1950) , Ankara. 2006.-B.49.

Darhaqiqat, bir dam umuman mushtarak boʻlgan insonlar bilan barobar birga yashashni istaydi. Chunki, insoniy shaxsiyatimiz badanimizda emas, ruhimizdadir. Moddiy ehtiyojlarimiz irqimizga bogʻliq boʻlsa, manaviy ehtiyojlarimiz tarbiyasini olayotganimiz jamiyat tomonidan beriladi. Buyuk Iskandar: “mening haqiqiy otam Filipp emas, Arastudir. Chunki, birinchisi modiyatimizning, ikkinchisi maʼnaviyati-mizning shakllanishiga sabab boʻlgan”, -deb aytgan.⁵³ Inson uchun maʼnaviyat moddiyatdan koʻra muhimdir. Anashu nuqtai nazardan millatda shajara tuzulmaydi. Faqat tarbiya va mafkuraning milliy boʻlishi talab etiladi. Sogʻlom bir inson qaysi bir millatning tarbiyasini olgan boʻlsa, keyin uning mafkurasiga bogʻliq boʻlib qoladi. Chunki, mafkura maʼlum bir jazava manbasi boʻlganligi uchun ham

zarur boʻlib, talab etiladi. (Holbuki tarbiyasi bilan chirmab tashlanmaganimiz har qanday jamiyat mafkurasiruhimizni aslo qoʻzgʻata olmaydi, zavq bermaydi.) Bilʼaks tarbiyasini olganimiz jamiyatning mafkurasini ruhimizni jazavaga gʻarq etar ekan, masʼud yashamogʻimizning sababi boʻladi. Bundan tashqari, inson tarbiyasi bilan bogʻlangan jamiyatning mafkurasiga ega boʻlishga hayotini ham fido qiladi. Xolbuki, zehnan mansub deb bilishi mumkin boʻlgan yot bir jamiyat uchun, ozgina manfaatini boʻlsada, fido qilmaydi. Bundan koʻrinadiki, inson tarbiya jihatidan mushtarak boʻlgan jamiyatda yashamasa badbaxt boʻladi. “Yuqoridagi fikrlardan chiqaradiganimiz amaliy natija quyidagidigicha –deydi mutafakkir, yurtda oʻz vaqtida bobolari Arnautlikdan yoki Arabistondan kelgan millatdoshlarimiz bordir⁵⁴. Ularni turk tarbiyasi bilan shakillantirib, turk mafkurasiga bogʻlanishga odatlantirib koʻrsak, boshqa millatdoshlarimizdan hech bir farqlay olmaymiz. Nafaqat osuda kunlarda, balki tahlikali zamonlarda ham bizdan ayrilmaganlarni qanday qilib mamlakatimizdan tashqari, deb tushunishimiz mumkin. Xususan, ular orasida millatimiz uchun katta fidokorliklar koʻrsatgan, turkchilikka ulugʻ xizmatlar qilganlarga, qanday qilib, ne uchun u fidokor insonlarga: “Siz turk emassiz”, - deb aytishimiz mumkin. Darhaqiqat, otlarda shajarani aniqlamoq lozim,

⁵³ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gükalp/Bahar_D.ogʻlu

⁵⁴ Ziya Gökalp, Yeni Hayat, Doğru Yol, Ankara. Ekim, 2006.-B. 53.

chunki, barcha ehtiyojlari shavqi tabiiyga asoslangan va irsiy bo'lgan hayvolarda ham erkinlikning buyuk bir ahamiyati bordir. Insonlarda erkning ijtimoiy hislatlarga hech bir ta'siri yo'qligi uchun shajara tuzish mumkin emas. Agar buning aksini maslak deb qabul qiladigan bo'lsak, mamlakatimizdagi ziyoliylar va mujohidlarning juda ko'pidan voz kechishimiz zarur bo'lib qoladi. Bunday hol joiz bo'lmaganligi uchun "turkman" degan har bir odamni turk deb e'tirof etishdan, turkchilikka xiyonat qilganlar ular orasida uchrasa, jazolashdan boshqa chora yo'q".⁵⁵

Sulton Abdulaziz hukmronligining oxirgi davri bilan Sulton Abdulhamid hukmronligining ilk davrlarida Istambulda ham bir ulug' fikriy harakat namoyon bo'layotgan joy bo'lib qolgan edi. Bu yerda ham bir "Donishmandlik anjumani" tashkil etila boshlagan, hamda bir "Dorilfunun" vujudga keltirilgan edi. Bundan tashqari, askariy maktablar ham yangi bir ruh bilan yuksala boshlagan edi.

U vaqtlarda "Tarix falsafasi" mudarrisi bo'lgan Ahmad Vofiq Poshsho bu dorilfununda edi. Ahmad Vafiq "Shajara'i Turk" asarini Sharq turkchasidan Istanbul turkchasiga tarjima etdi. Bundan tashqari, "Lahjai Usmoniy" nomida bir turk qomusini vujudga keltirib, Turkiya turkchasining umumiy va buyuk turkchaning bir lahjasi ekanligini, bundan boshqa turk lahjalari borligini, ularni diqqat bilan o'rganish zarurligi masalasini o'rta qoydi.

Ahmad Vofiq Poshshoning bunday ilmiy turkchiligidan tashqari, badiiy turkchiligi ham bor edi. Uning butun jihozlari, o'zining va oila a'zolarining shaxsiy liboslari mutlaq turk (sanoati) mahsulotlaridan iborat edi. Hatto juda ham suyukli qizi Yevropa tarzidagi bir tungi shippakcha sotib olish istagini bildirsa-da, "uyimga turklar ishlab chiqarmagan biron-bir narsa kirmaydi!", deya bu orzuning amalga oshishiga monelik qilar edi. Ahmad Vofiq Poshshoning yana bir "originalligi" Molyerning hajvlarini turk odatlariga moslab yuborish va asar qahramonlarining ismlarini, o'zligini turkchallashtirib naql qilishi va milliy bir sahnada o'ynatishi edi.

Dorilfununning bir mudarrisi turkchilikning bu asoslarini qurayotganda, harbiy maktablar nozirligida ishlagan Shipka qahramonini Sulaymon Poshsho

⁵⁵ Ziyoy Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 19

turkchilik harbiy maktablarini yaratishga kirishayotgan edi. Sulaymon Poshshoning turkchiligiga Degyuyguesning tarixi (kitob) ta'sir qilgan desak, yanglishmagan bo'lamiz. Chunki, Turkiyada birinchi marotaba Chin manbalariga asoslanib turk tarixini yozgan Sulaymon Poshsho shu asarida ayniqsa, Degyugnesni manba qilib olgan edi⁵⁶. Sulaymon Poshsho "Tarixi Olam"ning kirishida bu asarni nima uchun yozishga tashabbus ko'rsatilganini izoh qilar ekan, shunday deb yozadi: "Harbiy maktablarning nazoratiga kelinsa, bu maktablar uchun zarur bo'lgan kitoblarning tarjimasini mutaxassislariga havola qildim. Sira (Payg'ambar va uning ashoblari yurishlari, jangnomalari) tarixiga kelsak, ularni tarjima yo'li bilan yozdirilishi lozimligini tushundim. Yevropada yozilgan barcha tarix kitoblari yo dinimizga, yoxud millatimizga (turkchiligimizga) nisbatan uydirmalar bilan to'lib toshgan edi. Bu kitoblarning birontasini ham tarjima qilinib, bizning maktablarimizda shundog'icha o'qitilishi mumkin emas edi. Ana shu sababga binoan maktablarimizda o'qitiladigan tarix kitobini o'z zimmamga oldim. Vujudga keltirganim bu kitobga haqiqatga yot bo'lgan bironta so'z, tasodifan bo'lsada kirib qolishi mumkin bo'lmaganidek, dinimiz va millatimizga qarshi biron-bir so'zning ham to'g'ri aytilishining imkoni yo'qdir"⁵⁷.

Yevropaning ko'plab tarixiy kitoblaridagi Xunlarning Chin tarixidagi Xiong-Nu-lar ekanligini va ularning turklarning eng qadimgi bobolari bo'lganliklarini va O'gizxonning Xiong-Nu davlatining asoschisi "Mete" bo'lishi lozimligini birinchi marotaba qayd etgan Sulaymon Poshshodir⁵⁸. Sulaymon Poshsho bundan tashqari, Javdot Poshsho kabi, lison sarfiga oid kitob ham yozdi. Biroq bu kitobga Javdot Poshsho kabi "Qavondi Usmoniya" deb nom bermadi, balki "Sarfi Turk" deb atadi. Chunki lisonning turkcha ekanligini bilar edi. Sulaymon Poshsho o'zining bu hususdagi fikr e'tiqodini "Ta'limi adabiyoti Usmoniya" nomli kitob nashr etgan Rijozoda Kram Beyga yozgan maktubida ochiqdan-ochiq maydonga tashlagan edi. Bu maktubda: "Usmonli adabiyot" deyilishi to'g'ri emasdir. Xuddi shuningdek,

⁵⁶ Hasan Ali, "Mütefekkir Gökâlp'ın En Büyük Hizmetleri", Millî Mecmua Ziya Gökalp Nüshası, Teçrinisani 1340(1924), -B.73.

⁵⁷ Ziyö Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994.-B 44

⁵⁸ Hasan Ali, "Mütefekkir Gökâlp'ın En Büyük Hizmetleri", Millî Mecmua Ziya Gökalp Nüshası, Teçrinisani 1340(1924), -B.78

lisonimizni Usmonli lisoni va millatimizni Usmonli millatli demoq yanglishmoqdir. Chunki, “Usmonli” ta’biri faqat davlatimizning otidir. Millatimizning unvoni esa faqat ”Turk” dir. Ana shunga ko’ra, lisonimiz ham turk lisonidir, adabiyotimiz ham turk adabiyotidir”⁵⁹, - degan edi. Sulaymon Poshshoning askariy (maktablari) yuqori sinflarda o’qilishi ko’zda tutilgan. “Esamoi-Turkiya” nomli kitobi ham Usmonlichaning kuchli ta’sirida turkcha so’zlarni unutib yubormasligi maqsadida yozilgan edi.

Ko’rinib turibdiki, turkchilikning ilk boblari Ahmad Vofiq Poshsho bilan Sulaymon Poshshodir. “Turk o’chog’i” va boshqa muassasalarida bu ikki “turkchilik” “yo’l ko’rsatkichlarining” keng qamrovli rasm-rusmlarini o’rganish va sharhlab, tushuntirib berish qadriyat bozligimiz zimmasidadir.

Turkiyada Abdul Hamid bu ikki muqaddas jarayonni tugatishga urinayotganda, Rossiyada ikki buyuk turkchi yetishayotgan edi. Ularning birinchisi Mirza Fathalla Oxundov bo’lib, Ozariy turkchasida yozgan original hajvlari barcha Yevropa tillariga tarjima etilgan edi. Ikkinchisi “Tarjumon” gazetasini chiqargan Gaspirlı Ismoil dirki, turkchilikdagi shiori “tilda, fikrda va ishda birlik” edi⁶⁰. “Tarjumon” gazetasini Shimol turklari anglaganlaridek, Sharq bilan G’arb turklari ham angladilar. Barcha turklarning ana shu tilda birlashishlari mumkin ekanligiga ana shu gazetaning mavjud bo’lganli jonli misoldir.

Turkchilikning ilk davrida Degyuygues tarixiga sir bo’lganligini ko’rdik. Ikkinchi davrida Leon Kahenning “Osiyo tarixiga madhal(kirish)” nomli kitobining katta ta’siri bo’ldi⁶¹. Najip Osim Bey bu kitobning turklarga oid bo’lgan qismini, bir qator ilovalar bilan turkchaga o’girdi. Najip Osim Beyning bu kitobi har tomonlarda turkchilikka doir moyillikni uyg’ota boshladi. Ahmad Javdot Bey “Iqdom gazetasini turkchilikning bir matbuot maslalasiga aylantirdi. Amrulloh Afandi, Veled Chalabiy va Najip Osim Bey nana shu turkchilikning ilk mujohidlari edilar⁶².

⁵⁹ Ziya Go’kalp Terbiyenin Sosyal ve Kültürel Temelleri, Ankara.1973. –B. 16.

⁶⁰ Ziya Gokalp, ” Ziya Gökalp Diyor ki „ (1950) , Ankara. 2006.-B.23.

⁶¹ [http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Bahar D.og’lu](http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Bahar_D.og'lu)

⁶² http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/nutkleri.Ercan.B

“Iqdom” gazetasi atrofida to’plangan shu turkchilardan, ayniqsa, Fuad Raif Beyning turkchani soddalashtirish xususida yanglish bir nazariyani ko’zlaganligi, turkchilik jarayonini qiymatining pasayishiga sabab bo’ldi. Bu yanglish “tasfiyatchilik” (soflash-tozalash-purizm) g’oyasi edi⁶³.

Tasfiyachilik tildan arab, ajam o’lkalaridan kirib kelgan barcha so’zlarni chiqarib tashlash, ularning o’rniga turkcha ildizdan kelib chiqqan eski so’zlarni, yoxud turkcha ildizdan yangi odatlarga ko’ra, vujudga kelgan yangi turk so’zlarini qo’yishdan iborat edi. Bu nazariyaning amaliy tadbqiqotini ko’rsatish yuzasidan nashr bo’lgan ba’zi maqolalar va maktublar hissiyotga beruluvchan o’quvchilarninig nafratini qo’zg’ay boshladi. Xalq tiliga o’tgan arabiy va forsiy so’zlarni turkchadan chiqarish, bu lisonni eng jonli so’zlaridan, axloqiy, falsafiy iboralardan mahrum etar edi. Turkcha ildizidan yangidan yaratilgan (“yasalgan”) so’zlar sarf qoidalarini pala-partish qilishidan tashqari, xalq uchun ajnabiy so’zlardan ham yotroq, yanada majhulroq bo’lar edi. Ana shuning uchun bu harakat lisonning soddaligi, izohlashda to’ppa-to’g’ri usulni qollab, noaniqlik va zulmat (johillik) sari yuz tutgan bo’lardi. Bundan tashqari, so’zlarni atashda, ularning o’rniga sun’iy so’zlar qo’llashga kirishilganligi uchun haqiqiy bir til o’rniga turk esperantosini vujudga keltirar edi. Mamlakatning ehtiyoji esa, bunday o’ylab chiqarilgan esperantoni emas, tushunarli va anglasa bo’ladigan, to’qimali va suniylkdan holi so’zlardan tarkib topgan tuhsunchalar vositasi bilan royobga chiqishi mumkin edi. Shunday qilib, ana shu sabablar tufayli “Iqdom”dagi tasfiyatchilik (“soflashish”) foyda o’rniga zarar yetkazadi.

Bu orada, Husaynzoda Ali Bey Istanbuldan va Og’a-o’g’li Ahmad Bey Parijdan Bokuga kelgan edilar va u yerda mujohidlik qilish uchun qat’iy qaror qilgan edilar. To’pchiboshiyev ham ularga qoshildi. Bu uch shaxs u yerda o’sha paytlarga qadar davom etib kelgan sunniylar va shiyalar ihtiloflarini to’xtatib, turklik va musulmonlik jamiyatlari atrofida barcha ozarbayjonliklarni to’plashga kirishgan edilar.

⁶³ <http://www.egitim.aku.edu.tr>. Süleyman Karataş, Osmanli eğitim sisteminde batılalaşma

24-iyul inqilobidan keyinnroq Turkiyada Usmonlilik g'oyasi xukmron edi. Shu orada e'lon qilina boshlagan "Turk Dernegi" (Majlis, uyushma) majmuasi ham shu sababga ko'ra, yangi tafsiyachilik jarayonini qo'zg'ashdan boshqa hech bir narsaga rag'bat ko'rmadi.

Bu borada, Salonikada "Yosh qalamlar" nomli bir majmua chiqar edi. Majmuaning bosh muharriri Ali Jnip Bey bilan bir kecha Bayoz Kule (Oq minora) bog'chasida suhbatlashayotgan edilar⁶⁴. Bu yosh Go'kalpga majmuaning lisonda soddalikka intilishi bir inqilob yasashini, Umar Sayfiddinning bu mujohadada peshvo bo'lishini tushuntirdi. Umar Sayfiddinning lison haqidagi bu fikrlari tamomila Go'kalpning e'tiqodlariga mos kelar edi. Go'kalp yoshligida Tashqishlar (Toshqishloq)da mahbuslikda bo'lgan paytlarida askarlarning mulozimi avvalga (birinchi mulozim), mulozimi soniyga (ikkinchi mulozom), Tarablus-i-g'arb (G'arbiy Tripoli), Tarablus-i-Shom(Shom Tripoli)ga deyishlari unda shu qat'iylikni uygo'otgan edi⁶⁵.

Turkchani isloh etish uchun bu lisondan barcha arab forsiy so'zlarnigina emas, umumiy arabiy va forsiy qoidalarini uloqtirish, arabiy forsiy so'zlardan ham turkchasi bo'lmaganlarini qoldirish kerak edi.

Bu g'oyaga oid ba'diya yozuvlar yozgan bo'lsada, nashr etishga fursat topalmagan edi. Nima bo'libki, turkchilik haqida bir narsa yozishga ham hech bir fursat qo'lga kirmas edi. Hali o'n besh yoshligidayoq Ahmad Vofiq Poshshoning "Tarixi olam"i unda turkchilik g'oyalarini uyg'ota boshlagan edi. U vaqtlarda Husaynzoda Ali Bey bilan aloqada bo'lib, uning turkchilik haqidagi g'oyalarini o'rganar edi⁶⁶.

Shunday qilib, Ya'qub Qadriy, Yahyo Kamol, Fatih G'ifqiy, Rafiq Holid, Rishod Nuri Bey, kabi yozuvchilarlar va O'rxon Sayfi, Fariq Nafiz, Yusuf Ziyo, Hikmat Nozim, Vala Nuriddin Bey, kabi shoirlar yangi turkchani go'zallashtirdilar. Mufida Ferid Xonim ham o'ta qimmatli asarlari bilan, ham Parijdagi leksiyalari ushbu yangi g'oyalarni targ'ib etdi. Davlatchilik borasida

⁶⁴ [http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gukalp/Bahar D.og'lu](http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gukalp/Bahar_D.og'lu)

⁶⁵ http://www.turktarihi.tr/ziya_gukalp_nutkleri/Ercan.B

⁶⁶ Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B.114

fikrlarida millatchilikka yaqin qarashlar ustunlik qilsada, u o'z xalqi manfaatlarini himoya qilganligini, shu bilan birga g'arb madaniyati ta'siridan millatning milliyligini himoya qilmoqchi bo'lganligini anglab olishimiz mumkin.

2. Go'kalp dunyoqarashida Hars, Kultur, Madaniyat tushunchalarining tahlili

O'z davrining sotsiolog faylasuflaridan hisoblangan Ziyo Go'kalp zamonaviy sharq falsafasi tarixida o'z o'rnini va mavqeiga ega. Uning qarashlarida jamiyat va ijtimoiy hayot alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat borasidagi qarashlarida, Ziyo Go'kalp Hars, Kultur va Madaniyat kabi tushunchalarni ishlatadi va ularni davlatning kelajagini belgilab beruvchi eng yetakchi manba⁶⁷, deb hisoblaydi. Fransuzcha "culture" so'zining ikkita alohida-alohida ma'nosi bor. Bu ma'nolardan birini "hars" (milliy madaniyat), "tahzib" (tarbiya) iborasi bilan tarjima qilib, "Hars" haqidagi barcha noto'g'ri tushunchalar fransuzcha "culture" so'zining ana shunday ikki ma'noga ega ekanligidandir, deb biladi. Shuning uchun Ziyo Go'kalp bu ikki so'zni "hars"(milliy madaniyat) va "tahzib"(madaniy tarbiya) so'zlari bilan ajratib, yanglish tushunchalarga hotima berishga harakat qiladi⁶⁸.

Hars bilan madaniyat o'rtasida ham umumiylik, ham farq qiluvchi nuqtalar bor. Hars bilan madaniyat o'rtasidagi umumiylik nuqtasi - har ikkalasining ham butunlayicha ijtimoiy hayotning jami ekanligidir. Ziyo Go'kalp ijtimoiy hayotni quyidagicha tasniflaydi:

- Ahloqiy hayot;
- Diniy hayot;
- Huquqiy hayot;
- Muomalaviy hayot;
- Badiiy hayot;
- Iqtisodiy hayot;
- Lisoniy hayot;

⁶⁷ Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B 98

⁶⁸ Ziyo Go'kalp Terbiyenin Sosyal ve Kültürel Temelleri, Ankara.1973. –B.47

•Ilmiy hayot.⁶⁹

Ana shu sakkiz xil ijtimoiy hayot majmuiga “hars ” (milliy madaniyat) deb yuritiladi. Hars bilan madaniyat orasidagi umumiylik va o’xshashlik nuqtalari ana shulardir. Shuningdek, hars bilan madaniyat orasidagi farqlarni ajratib, tadqiq qiladi.

Birinchidan, “hars ” milliy bo’lgani holda, “madaniyat ” baynalmilaldir. Hars faqat bir millatning diniy, ahloqiy, huquqiy, muomalaviy, badiiy, iqtisodiy va ilmiy hayotlarning ohangdor bir majmuasidir. Madaniyat esa, ayni bir “ma’mura”ga kiradigan bir qator millatlarning ijtim

oy jarayonlarning umumiy (mushtarak) majmuidir. Masalan, Yevropa va Amerika ma’murasida Yevropa millatlari uchun umumiy bir “G’arb madaniyati” mavjuddir,⁷⁰ deb ta’kidlaydi.

Ikkinchidan, madaniyat usul vositasida va shaxsning irodalari tufayli vujudga keladigan ijtimoiy hodisalarning majmui bo’lib, misol tariqasida, dinga oid bilimlar va ilmlar usul va iroda bilan vujudga kelgani kabi, ahloqqa va huquqqa, nafis san’atlarga, iqtisodga, muomalaga, tilga va fanlarga doir bilimlar va nazariyalar ham shaxslar tomonidan usul va iroda bilan vujudga keltirilishini uqtiradi. Shuning uchun ham ayni bir ma’mura hududida (doirasida) bo’lgan barcha mazkur tishunchalar, bilimlar va ilmlarning majmui “madaniyat”, deb ataladigan narsani vujudga keltirilishini ham ta’kidlaydi.

Ziyo Go’kalp yana shuni ta’kidlaydiki, harsga doir bo’lgan narsalar esa usul yordamida, shaxslarning irodasi tufayli vujudga kelmaydi, ya’ni sun’iy emasdir. O’simliklarning, hayvonlarning uzviy hayoti o’z-o’zicha va tabiiy bir tarzda ro’yobga chiqib boraversa, harsga kiradigan narsalarning shakllanishi va kamolga yetishi ham aslan shundaydir. Masalan, til shaxslar tomonidan biron-bir usul bilan yaratilgan narsa emas. Tilning bir so’zini o’zgartira olmaymiz. Uning o’rniga boshqa bir so’zni ijod qilib, qo’ya olmaymiz. Tilning o’z tabiatidan tug’ilgan biron-bir qoidasini o’zgartira ham olmaymiz. Tildagi so’zlar va qoidalar faqat o’z-

⁶⁹Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 103

⁷⁰O’sha asar –B. 106

o'zicha o'zgara boradi. Biz bu o'zgarishlarni kuzatib turamiz, xolos. Shaxslar tomonidan tilga faqat bir qator islohotlar, ya'ni yangi iboralar qo'shilishi mumkin. Faqat mazkur iboralar ular mansub bo'lgan birlik (millat, elat) tomonidan qabul qilinmaguncha, ibora mohiyatiga ega bo'lib qolaveradi, so'z nufuzini olmaydi. Ya'ni bir ibora muayyan maslakdagi millat, elatlar tarafidan qabul qilingandan so'nggina millat, elatga oid bir so'z nufuzini oladi. Qachonki, butun xalq tarafidan qabul qilinsa, umumiy so'zlar qatoriga kira olishinni aytib o'tadi.

Biroq yangi u iboralarni bir millat yohud butun xalq tomonidan qabul etilishi yoki qabul qilinmasligi ixtirochilarning qo'lida emas, balki usmonli tilida vujudga kelgandan beri millionlarcha iboralar ijod qilingan bo'lsa ham, ulardan bir qismigina guruh (lahjaviy) so'zlar sirasiga kira olgani, umumiy so'zlar sirasiga kira olganlari esa, bor-yo'g'i besh-o'n so'zga taalluqlidir⁷¹, deydi.

Ziyo Go'kalpning fikricha, narsaning ilk na'munasini tildagi so'zlarda, madaniyatning ilk na'munasini ham yangi iboralar tarzida ijod qilingan istilohlarda ko'rsa bo'ladi, ya'ni so'zlar ijtimoiy hodisalardir, yangi iboralar esa, shaxslar ijodkorligi na'munasidir. Bir shaxsning ijod qilgan bir iborasi ba'zan, oniy(qisqa daqiqada) bir muddatda tarqalib, urf bo'lib keta oladi. Biroq mazkur urf nufuzini u iboraga bergan, baxsh etgan, uni ijod qilgan odam emas, balki jamiyatdagi shaxslar orasida kechadigan, ko'zga ko'rinmas bir jarayondir.

Usmonlilar davrida mamlakatda yonma-yon ikki til yashar edi: ulardan birinchisi, rasmiy bir nufuzga, qimmatga ega edi va yozuvi hukmron mavqega egadek edi. U "usmonlicha", deb atalar edi. Ikkinchisi, faqat xalq orasida gaplashishga taalluqlidek edi. Unga istehzo bilan "turkcha" nomi berilgan edi. Va umuman maxsus ta'kidlab aytilar edi. Holbuki, asli tabiiy va haqiqiy til ana shu til edi. "Usmonlicha" esa, turkcha va ajamchadan iborat bo'lgan uch tilning sintaksisi, morfologiyasini, so'z boyligini birlashtirishdan hosil bo'lgan sun'iy bir bo'tqadan iborat edi. Mazkur ikki tildan birinchisi tabiiy bir tarzda shakllangan va muomalaga o'z-o'zicha kirib kelgan edi. Shuning uchun ham harsning tili edi. Ikkinchisi esa, shaxslar tarafidan usullar va iroda yordamida yaratilgan. Bu

⁷¹Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimai)T.:GFNTI. 1994. –B. 116

o'zlarining udumlari bo'lmish "ashura"ga (Ashura kuni sadaqa qilinadigan ashura shirinlikka) faqat ba'zi bir turkcha so'zlar va ifodalar aralashgan edi, xolos. Demak, usmonlichada oddiy madaniyat (hars)ning ham, juda oz bo'lsada, hissasi bor edi. Shu tufayli uni madaniyatning lisoni edi, deya olamiz. Turkiyada mana shu ikki til kabi ikki vazn ham yonma-yon mavjud edi. Turk xalqining odatda qo'llaydigan turk vazni usul yordamida yaratilmagan edi. Xalq shoirlari vaznning bo'lish bo'lmasligini bilmagan holda g'oyat lirik she'rlar yozar edilar. Tabiiyki, bu ilhom va badiiy ijod maxsuli sifatida sodir bo'lar edi. Usul va taqlid bilan yaratilmas edi. U holda bu vazn ham turk harsiga kirar edi. Usmonli vazniga kelinsa, u ajam shoirlaridan olingan edi. Bu vaznda she'r yozganlar taqlid va usul yordamidagina yoza olar edilar. Ana shu sababdan "aruz vazni" deb ataluvchi bu vazn xalq orasida nufuzga ega emas edi. Bu vaznda she'r yozganlar ajam adabiyotini o'rganish orqali maqsadga erishardilar, ular orasida aruzni tadbiq qilar edilar. Shunday qilib, aruz vazni milliy harsga kirib, o'rnasha olmadi. Ajamlarda esa, hatto dehqonlar ham aruz vaznida she'rlar ayta olar edilar. Ana shu tufayli aruz vazni, Eronning milliy harsiga kiradi, deb aytish mumkin.

Mamlakatda bulardan boshqa, yonma-yon mavjud bo'lgan yana ikki xil musiqa bor, deb ta'kidlaydi Go'kalp Bulardan biri – xalq o'rtasida o'z-o'zidan vujudga kelgan, tug'ilgan "turk musiqasi", boshqasi Vizantiyadan tarjima va iqtibos qilingan "usmonli musiqasi"dir.⁷² Turk musiqasi ilhom natijasi o'laroq vujudga kelgan, taqlid yo'li bilan xorijdan olinmagan edi. Usmonli musiqasi esa, taqlid vositasida xorijdan kelgan va shunchaki usul yordamida davom ettirilgan. Ularning birinchisi harsining, ikkinchisi esa, madaniyatning musiqasidir. Madaniyat qandaydir usul bilan yaratilgan va taqlid vositasida bir millatdan boshqa bir millatga o'tgan tushunchalar va texnikalarning majmuidir. Hars esa, na usul yordamida yaratilgan, na taqlid yordamida boshqa millatlardan o'zlashtirilgan tuyg'ulardir. Ana shu sababga ko'ra, usmonli musiqasi qoidalaridan tarkib topgan bir fan sifatida mavjud bo'lgan holda, turk musiqasi qoidasiz, usulsiz, fansiz ohanglardan, turkning bag'ridan qo'zg'algan samimiy bir nag'malardan biridir.

⁷² Terbiyenin Sosyal ve Kültürel Temelleri. Ankara.1973.-B.46.

Vaholanki, Vizantiya musiqasining kelib chiqish manbasini aniqlasak, uning ham qadimgi Yunonlarning harsiga kirishini ko'rsa bo'ladi.

Mutafakkir adabiyotda ham xuddi ana shunday ikkilik mavjuddir⁷³, deydi. Turk adabiyoti xalqning zarb-ul-masallari bilan topishmoqlaridan, xalq masallari bilan xalq aytishuvlaridan, dostonlaridan, xalq jangnomalari bilan manoqiblaridan, takkyalardagi ilohiylari bilan “dam urush”laridan xalqning ichak uzdi latifalaridagi ilohiy fikrlardan va xalq tomoshalaridan iboratdir. Zarb-ul-masallar to'g'ridan-to'g'ri xalqning hikmatlaridir. Topishmoqlarni ham vujudga keltirgan xalqdir. Xalq masallari ham shaxslar tomonidan tuzilgan emas. Ular turklarning afsonaviy davlatlaridan boshlanib, an'anaviy bir tarzda bizning zamonamizgacha yetib kelgan “pari masallar” bilan “dev masallardir”. Ziyo Go'kalpning fikricha, Bobo Qurqud Kitobidagi masallar ham shoirdan - shoirga og'zaki ulanib ketadigan tarzda ko'chib kelgan, ko'p asrlar avval yaratilgan, Shoh Ismoyil, Oshiq Karam, Oshiq G'arib, Ko'ro'g'li kitoblari ham o'z vaqtida xalq tomonidan yozilgan xalq masallaridir. Turk tarixi va etnografiyasidagi hozirgi so'zlar, mif va afsonalar ham turk adabiyotining unsurlaridir. Jangnomalar va diniy manoqiblarga esa, xalq adabiyotining musulmonlik davrining o'ziga xos mahsullaridir. Xalq shoirlarining aytishuvlari bilan dostonlari, maoniylar bilan qo'shiqlari ham yuqorida sanab o'tganimiz asarlar kabi, turk xalqining samimiy, eng toza asarlaridir. Ular usul bilan ham, taqlid bilan ham yaratilgan emas. Oshiq Umar, Dardli, Qoracha o'g'lonlar kabi shoirlar xalqning eng sevgan shoirlaridir. Takkyalar ham qandaydir xalq ibodatxonalarida bo'lganliklari uchun ularda paydo bo'lgan ilohiylar bilan “dam urushlar” xalq adabiyotiga va turk adabiyotiga kiradi. Yunus Emro va Qayg'usiz bilan Bektoshiy shoirlari ham ana shu guruhga kiradi. Usmoniy adabiyoti esa, masal o'rniga shaxsning hikoyalari bilan romanlardan, aytishuv va doston o'rniga taqlid yo'li bilan yaratilgan g'azallar bilan ming turlanuvchi manzumalardan tarkib topgandir. Usmonli shoirlardan har biri, mutlaqo Ajam davrida bir Ajam shoir bilan, fransuz (adabiyoti) shoiri bilan hammaslakkidir. Fuzuliy bilan Nozimlar ham hatto bu xususda mustasno emasdir. Shu jihatga ko'ra, usmonli adiblar bilan

⁷³ Terbiyenin Sosyal ve Kültürel Temelleri. Ankara. 1973. -B.48.

shoirlardan hech biri original emas, zehni hunarmandlikdan tug'ilgandir. Masalan, deydi Go'kalp hozir yumor (nekregulik) nuqtai nazaridan quyidagi ikki guruhni qiyoslaydi: Nasriddin Xo'ja, Injili Chovush, Bekri Mustafo va Bektoshiy baxshilari xalqning hozir hajvchi-kulguchi, qiziqchilari (nekregu)dir. Qoniy bilan Sururiy esa usmonlilar Devonining mazahchilaridir⁷⁴. Tabiiy o'tkir hajv bilan sun'iy mazax orasidagi farq ana shu qiyoslash orqali yuzaga chiqishini uqtiradi.

Qorako'z bilan xalq teatri esa, ular ham xalq tomoshasi, ya'ni an'anaviy turk teatri bo'lib, Qo'rako'z bilan Hajivatning bahs-munozaralari turkcha bilan usmonlichaning, ya'ni o'z davridagi hars va madaniyatning mujodalaridan iboratlini aytib o'tadi.

Ahloq sohasida ham ayni shunday ikkilikni ko'rsatib o'tgan Go'kalp, "Turk ahloqi" bilan "Usmonli ahloqi" bir-biriga zid bo'lishini aytadi. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "devoni-lug'atit -turk"ning bir bobida, turklarni qisqacha ta'rif qiladi. U aytadiki, turkda sedan chiqarish va kekkayish yo'qdir. Turk buyuk qahramonliklar va fidokorliklar ko'rsatgan, vaqtda ham go'yo hech bir favqulotda narsani sodir etganligidan xabarsizdek ko'rinadi. Johiz ham turklarni ayni shu tarzda tushuntirishga harakat qilgan. Usmonlining tabiati (mijoz)ga qaraydigan bo'lsak, qadimgi shoirlarida faxryalarni, ya'ni adiblarida o'zidan ketish va kekkayish yetakchi ekanligini ko'ramiz."Sarvati fanun" maktabi usmonli adabiyotinig eng porloq davri bo'lgan. Ana shu maktabga mansub bo'lgan adiblar bilan shoirlarning aksariyati o'z fikrini hammanikidan yuqori quyuvchi badbin, udumsiz, hasta ruhlar tarzida namayon etgan. Haqiqiy turk esa, ishonchli, uzoqni ko'ra oladigan (nekbin) udumli va sog'lomligini Go'kalp yana bir bor ta'kidlaydi.

Hatto ulamolar orasida ham ana shu ikkilikni ko'rish mumkinligini eslatdi. Usmonlicha ulamoning an'anaviy unvoni "ulamoiy rusum" edi. Birinchilar-juda rutbali (korchalon), biroq johil edilar. Ikkinchilar- juda bilimdon, biroq darajasiz edilar. Istambulda ana shu hayot bilan muzokara qilishga "ulamoiy rusum"ni tayin etgan. Eronli ulamolar hay'ati ularga so'z anglata olishdan ojiz qolib, badri a'zamga murojaat qilib: "Bizning siyosiy hech bir rutbamiz, ilmdan boshqa

⁷⁴Terbiyenin Sosyal ve Kültürel Temelleri. Ankara. 1973. -B.54.

poyimiz(martabamiz) yoqdir. Chunki muzokaralarda biz bahs-munozara qilgan zotlar buyuk martabali zotlari bo'lganligidan huzurlarida qo'llarimiz teng holda so'zlasha olmaymiz. Bizni viloyatlrdagi darajalari past yoki darjasiz ulamo bilan ro'baro' qilsangiz ko'p mamnun bo'lamiz"⁷⁵,-dedilar. Rag'ib Poshshoning "Tahqiq-ul-tavfiq"("Tavfiqni tadqiq etish") nomli kitobida naql etilgan bu ishonchli voqeya shuni ko'rsatadiki, Nodir Shohning ilmiy hay'ati Usmonli ulamosiga emas, turk ulamosiga yuksak hurmat bildirar edi.⁷⁶

Qadimgi davrlardagi hatto siyosiy yoki harbiy muvaffaqiyatlar ham xalq orasidan chiqqan johil va omiy poshsholarga tegishlidir. Oxir-oqibatda Rag'ib Poshsho va Sefiq Poshshso kabi usmonlilar maorifida yuksak bir mavqe qozonganlar hukumat tepasiga kelgach, ishlar buzilishni boshladi. Chunki, mazkur ijtimoy ikkiliklar faqat fikriy faoliyatlarga xos edi. U vaqtlarda elning ishi avomning aqli yetmaydigan maxsus ishlar, deb bilinganida, hoyu-havas sinfi (ya'ni quyi tabaqalar) texnkanig har qanday navlaridan uzoqda turar edilar. Ana shu sabab bilan me'morlik , xattotlik, yog'och o'ymakorligi, muqovachilik, ustachilik, duradgolik, temirchilk, bo'yoqchilik, gilamchilik, to'quvchilik, rassomchilik, naqqqoshlik kabi amaliy texnikaning faqat bir shakligina bor edi. U ham bo'lsa, xalq hunarmandchiligi edi. Demak, umuman olganda yuksak bir badiiylikka erishgan mazkur san'atlarga turk san'ati nomini berilgan. Ular usmonlilar madaniyatining unsuri emas, turk harsining unsurlari edi. Hozirda Yevropa bu qadimgi san'at mahsullarini milliyonlar sarf etib, parcha-parcha shaklda bo'lsada, to'plamoqda. Yevropa, Amerikaning muzeylari, ko'rgazma salonlari hammasi turk san'ati asarlari bilan to'lmoqda. Yevropadagi bunday turkparastlik "turkerie", deb ataladi. Yevropaning haqiqiy mutafakkir va san'atkorlari, masalan, Lamartinlari, Avguste Komtelari, Pyer Lafayetlari, Mismarlari, Pyer Lotlari, Farrarlari turklarning samimiy san'atiga, zabt etuvchi, yarq etib ko'zga tashlanib turuvchi axloqiga , samimiy va taassubsiz diyonatiga, qanoat va o'zini fido qila olish bilan birga doimiy uzoqni ko'ra olishi hamda mafkuraviy na'munasidan iborat bo'lgan

⁷⁵Terbiyenin Sosyal ve Kültürel Temelleri. Ankara.1973.-B.63.

⁷⁶ http://www.turktarihi.tr/ziya_gükalp_nutkleri/Ercan.B.

faqirona, biroq mas'udona hayotiga maftundirlar. Lekin ular oshiq bo'lgan narsalar usmonlilar madaniyatiga kiradigan usul va taqlid yo'li bilan asarlar muommo emas, turk harsiga mansub bo'lgan ilhomga asoslangan, asl asarlardir⁷⁷.

Faqat turk mamlakatida xos bo'lgan bunday g'aroyib vaziyatning sababi nima? Nima uchun bu o'lkada mavjud mazkur ikki mijoz- turk mijozi va usmonli mijozlari bu qadar o'zaro ziddirlar? Nima uchun turk mijozining har bir narsasi go'zal, usmonli mijozining har bir narsasi yomondir? Chunki, usmonli mijozi turkning harsi va hayotiga zararli bo'lmish imperiazizmga tortadi, kosmopolitlikka chorlaydi, sinf manfaatini milliy manfaatdan ustun ko'radi. Darhaqiqat, usmonli imperatorligi kengayib borib, yuzlarcha millatlarni o'z siyosiy ta'sir doirasiga olguncha, idora etuvchilar bilan idora qiluvchilar alohida-alohida ikki sinfga aylangan edi. Idora qilish bilan shug'ullangan barcha kosmopolitlar "usmonli sinfini", idora qilganlar- turklar "usmonli sinfi"ni tashkil etardilar. Bu ikki sinf bir-birini sevmas edi. Usmonli sinfi o'zini hukmron sinf sifatida ko'rardi, idora qilayotgan turklarga mahkum millati-mahkum (tobe' millat) nuqtai nazaridan qarar edi. Usmonli doimo turkka "eshak turk" deyar edi. Turk qishloqlariga rasmiy bir shaxs keladigan bo'lsa, "usmonli kelyapti" deya hamma tirqirab har yoqqa qochar edi. Hatto turklar orasida qizilboshlarning yuzaga chiqishi ham ana shu farqning mavjudligi bilan izohlanadi.

Shoh Ismoilning otasi bo'lgan Shayx Junayid O'g'uz urug'lari orasida "avlod avvalmi, yo bo'lmasa , as'hob avvalmi?" deb tashviqot qilardi. O'g'uz urug'lari O'g'uzxonning avlodi va Qayyonilarning (Qayilar) amakivachchalari emasidilar? Qanday qilib bo'lsa-da, podshoxlarning Enderundan chiqqan devshirmalaridan(xristian bolalaridan tayyorlangan maxsus yanicharlar gvardiyasi) tarkib topgan asxoblari ulardan qadimroq (aslzodaroq) deb qaralar edi. U tarixdagi xalq shayxlari, turklarning u zamonlardagi mazlumligini o'z vaqtida aql-i-bayt duchor bo'lgan mazlumlikka o'xshatar edilar. U vaqtlardagi turkmanlarning bir qismi ana shu o'xshashlikka aldanib ota-bobolar o'chog'idan (yurtidan) ayrildilar. O'z-o'zlariga alohida bir adabiyot, alohida bir falsafa yaratdilar.

⁷⁷http://www.ziya_gulalp.com/inkilaptarihi/Avaz.R

Shu bilan birgalikda, dinda usmonlilardan ajralmagan turklar ham o'z harslarida usmonli imperatorligiga tobe' bo'lmadilar. Ular ham o'z –o'zlariga milliy bir hars yaratib usmonli adabiyotga nisbatan tamomila loqayd qolaverdilar. Usmonli madaniyatining nodiralariga “havas” deb atalganidek, turk harsining ham shoirlari, oshiqlari, shayxlari va ustalari bor edi. Demak, har holda mamlakatimizda ikki turli ajratib, tanlab olingan go'zidalar(nodir so'z ustlari) mavjud edi. Ulardan birinchisi saroyni tavsif etardi. Shu guruhning maishatini ta'min etgan saroyning bergan ehsonlari bilan, maoshlar bilan kun o'tkazar edilar. Xalqning soz va so'z ustalari bo'lmish shoirlar esa, xalqning hadyalari bilan yashar edilar. Ulamo-i-rusum nomini usmonli ulamosi qozilik hizmatida , qoziliklarda katta maoshlar va arpaliklar (non puli) berilar edilar. Xalqning xo'jalari va shayxlaridan iborat bo'lgan turk diniyatchilarini esa faqat xalq boqar edi.⁷⁸ Ana shu sababga ko'ra, go'zal san'atlarda va boshqa hunarlarda rahbarlik qilgan ustalar, jo'raboshilar va Ahiy shayxlari faqat xalq sinfidan yetishar edilar va doimo xalqchil va turkchi bo'lib qolaveradilar.

Ko'rinib turibdiki, hars bilan madaniyatni bir-biridan ajratuvchi, hars asosan milliy tuyg'ulardan, madaniyatning esa, bilimlardan tarkib topganligidir. Insondagi tuyg'ular usul bilan irodaga tobe emas. Bir millat boshqa bir millatning dini, ahloqi, badiiy tuyg'ularini taqlid yo'li bilan qabul qilishi mumkin emas. Masalan, turklarning musulmonchilikdan avvalgi dinida Ko'k-Tangri mukofat tangrisidir. Jazo berish bilan shug'ullanmaydi. Jazo beruvchi xudo “Erlik Xon” nomli boshqa bir ustivir shaxsiyatdir. Tangri faqat o'z jamoli sifatlari bilan namayon bo'ladigan bo'lganligi uchun qadimgi turklar unigina sevar edilar: tangriga nisbatan qo'rquv hissi bilangina cheklanib qolmas edilar. Islomdan so'ngra esa, turklarda Ollohga muhabbatning g'olib kelishi ana shu an'ananing davomidan iboratdir. Turklardagi Ollohdan qo'rqish juda ham samimy, toza, lekin kam uchraydigan holdir. Istanbul va Onodulidagi voizlarning tajribalari ko'rsatadiki, go'zalikka yaxshilikka oid va'z qilgan voizlarning tajribalari ko'rsatadiki, ularning diniy muhlislari ortadi: jahannamdan, azobli farishtalardan,

⁷⁸http://www.ziya_gulalp.com/inkilaptarihi/Avaz.R

bahs yuritadigan voizlarning somiylari (tinglovchilari) esa, doimo ozayib boradi. Turklarning qadimgi dinlarida zuhdiy ibodatlar yo'qdir, badiiy va ahloqiy marosimlar ko'p edi. Ana shuning natijasi o'laroq, islom kelgandan keyingi davrlarda ham turklar juda kuchli bir imonga, eng samimiy bir diyonatga ega bo'lganliklari holda, zohidona va mutaassibona his tuyg'ulardan holi qolaverdilar. Bu borada Yunus Emroni o'qish kifoya qiladi. Turklarning jome'larida xudoga sig'inishlari va Mavlud-i-Sharif qiroatlarida: takkyalarida she'rga va musiqaga katta o'rin berishlari badiiy diyonat mijozi egasi ekanliklaridandir⁷⁹.

Qadimgi turk dinida, turk tangrisi tinchlik (sulh) va sog'lik (salomatlik) ilohi edi. Turk dinining mohiyatini ko'rsatuvchi "El" so'zi sulh ma'nosiga edi (Mahmud Qoshg'ariy). Elchi "sulhchi" deyilgani kabi, elchi "sulh hoqoni" degan ma'noni bildiradi.⁸⁰ Turk elxonlari Manjuriyadan Mojaristonga qadar barqaror tinchlikni o'rnatgan sulhparastlardan boshqa bir fidoiylar emas edilar.

Eng qadimgi turk davlatining asoschisi bo'lgan Metening yuksak ahloqini, sulhparvarligini, imperializmga yotligini "Yangi Majmua"da ham batafsil keltirilgan edi. Turk sulhparvarliginining asoschisi Metedir.⁸¹

Turklar ana shu qadimgi an'anasi soyasida shunday bo'ldiki, turk hukmdorlari musulmonlik davrida ham mag'lublarga shafqat bilan muomala qilardilar, o'zlarini doimo baynalminal sulh tarafdorlari deb, bilardilar. Turklarning tarixi boshidan oxirigacha bu da'voning shohididir. Hatto yevropaliklarni zo'r berib qoralaganlari Attila ham, ularning o'zlarining rivoyalariga ko'ra, mag'lub millatlar qachon sulh taklif etsalar, darhol qabul qilar edi. Chunki, Atilla ham bir elhon, ya'ni dunyoda sulhni ta'min etishga o'zini bag'ishlagan bir fidoiy edi. Yevropaliklar Attilani "Tangri Quti" (ya'ni-Tangrinig yashirin siri) unvonini "Ollohning balosi" tarzida tarjima qilib tarixiy bir gunohga yo'l qo'yganlar.⁸² Turklarning barcha san'at sohalarida oshkor bo'lgan barcha badiiy dam tabiiylik, soddalik, o'tkir zehnlilik (zarofat) va originallikdan iboratdir. Turklarning gilamlarida, chinnilarida,

⁷⁹ Ziya Gokalp, "Ziya Gökalp Diyor ki", (1950), Ankara. 2006.-B.67.

⁸⁰ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Xuseyin.R

⁸¹ O'sha sayt.

⁸² Ziya Gökalp, Türkleşmek İslâmlaşmak Muasırlaşmak, Ankara Kültür Bakanlığı Yayınları 1976. -B. 36

me'morchiligida, husniyat san'atida namayon bo'lgan hamma narsa ana shu badiiy o'ziga xoslik, turklarning xizmatlaridir. Turkning go'zal sa'natlarida bo'lgani kabi diyonat va axloqida ham ana shu hamma afzalliklarning hukmron ekanligi ko'zga tashlanadi.

Mana shu misoldan ham anglashiladiki, bir harsni tashkil etadigan ijtimoiy hayotning ko'p tomonlari orasida samimiy bir bog'lanish, samimiy hur ohang bordir. Turkning tili qanday sodda bo'lsa, diniy, axloqiy, badiiy, siyosiy, iqtisodiy, oilaviy hayotlar ham sodda va samimiydir. Turklarning hayotidagi yoqimtoylilik va orginallik ana shu markaziy mavqeni egallagan xarakterning namoyon bo'lishidan iboratdir. Biroq harsning unsurlari orasida mavjud ohangagina qarab madaniyat ham ohangdor unsurlardan tarkib topadi deb o'ylash to'g'ri emas. Usmonli madaniyati turk, ajam, arab harslari bilan islom diniga, Sharq madaniyatiga va keyingi vaqtlarda esa, G'arb madaniyatiga mansub bo'lgan muassasalardan tarkib topgan bir aralashmadir. Bu hodisa hech vaqt gullab-yashnab, tabiatni belgilab beradigan ohangdor bir manzuma darajasiga o'sib yetmadi. Muayyan bir madaniyat qanchalik bir milliy harsga bog'lanaversa, shunchalik ohangdor bir birlik holatiga erishaverdi. Masalan, ingliz madaniyati ingliz harsiga taaluqlidir. Ana shu sababga ko'ra, ingliz harsi kabi, ingliz madaniyatining unsurlari orasida ham bir mushtarak ohang bor.

Go'kalpga ko'ra, hars bilan madaniyat orasidagi yana bir munosabat quyidagichadir: Har urug'ning (qavmning) avval boshdanoq faqat ungagina tegishli harsi bordir. Bir qavm harsda qanchalik yuksalsa, siyosatda ham shunchalik kuchli, quvvatli davlatni vujudga keltiradi. Boshqa tarafdin esa, harsning yuksala borishiga qarab madaniyat ham yuksala boshlaydi. Madaniyat eng boshlang'ich harsdan tug'ulgani uchun, oxir-oqibatda qo'shni millatlarning madaniyatidan ham bir qator narsalarni oladi. Biroq bir jamiyatning madaniyatida afzal ko'rilgan bir kashfiyot xuddi shu tarzda boshqasida ham yuzaga kelishi zararlidir. Ribo(Ribot): "Zehnning haddan tashqari kashfiyotlarga qobilligi namayon bo'laversa, u hulqning buzilishiga olib keladi"⁸³, deydi. Bir odamda zehn

⁸³Gökalp, Z. Türk Ahlakı, Türk Kültür Yayınları, İstanbul. 1975. –B. 68

qanday bo'lsa, jamiyatda ham hars xuddi shunday bir narsadir. Binobarin, zehning haddan ziyoda fazilatlarga erishaverishi ham odam xulqini buzganidek, madaniyatning fozillasha borishi ham milliy harsni buzadi. Milliy harsni buzilgan millatlarga “aynigan millatlar” deb ataladi⁸⁴.

Nihoyat, hars bilan madaniyating yana bir munosabati quyidagidan iboratligini ta'kidlaydi: Harsi quvvatli, biroq madaniyati zaif bir millat bilan, harsi buzilgan, biroq madaniyati yuksaklgani sari harslari ham buzila boshladi. U vaqtlarda yangi tug'ilayotgan fors davlati esa, madaniyatda orqada qolishiga qaramay, qudratli bir harsga ega edi. Ana shu sabab tufayli misrliklarni mag'lubiyatga uchratdi. Bir necha asrlardan so'ng Eronda ham madaniyat yuksaldi. Tabiiyki, hars zaiflasha boradi. Bu safar ham ibtidoiy harslari hanuz buzilmagan yunoniylarga mag'lub bo'ldilar. Bir qancha vaqtdan so'ngra, yunon harsi ham buzila boshlaganidan yunoniylar ham, eroniylar ham qudratli bir harsi bilan maydonga chiqqan madaniyatsiz, makedoniyaliklar bilan kurashda mag'lub bo'ldilar. Sharqda Ashkoniyon Sosoniy sulolalarining G'arbda Rumliklarning harsi buzila boshlagan makedoniyaliklar bilan kurashdagi g'alabalari ham ayni mana shu tarzda izohlanishi mumkin. Va nihoyat, madaniyatdan hech bir nasibi bo'lmagan, biroq harsda juda quvvatli bo'lgan arablar maydonga kelib, ham Somoniylar, ham Rumliklar bilan kurashda g'olib keldilar. Biroq ko'p vaqt o'tmasdanoq arab millati ham madaniylasha boshlaganidan keyin, o'z harsidan ayrila boshladi, siyosiy hokimiyatda Turkistondan yangi kelayotgan Muzaffar Saljuq turklariga taslim bo'ldilar. Zafarni ta'minlagan turklarning milliy harsidan boshqa bir narsa emas ekan. Turklarning shu paytgacha mustaqil bo'lmasligi Chanoqqal'adan inglizlar bilan fransuzlarni quvib yubormasligi va “Yarashish”dan so'ng inglizning qurollari va paraxodlari bilan jihozlangan yunoniylar bilan armaniylarni mag'lub qilib, ma'naviy jihatdan inglaizlarni yengishi ham, shu milliy hars qudrati tufaylidir.

Hars bilan madaniyat orasidagi mazkur munosabatlar aniqlab olingandan so'ng, uning nima ekanligi va bu mamlakatda qanday vazifalarni amalga

⁸⁴O'sha asar

oshirishga yo'naltirilganligini aniqlay olamiz. Usmonli madaniyati ikki bosqichga binoan barbod bo'lishga mahkum edi. Birinchidan, usmonli imperatorligi barcha imperatorliklar kabi muvaqqat bir jamiyatdan iborat bo'lishi edi. Barqaror yashashga qobil bo'lgan uyushmalar esa, oddiy bir jamlashish emas, bir jamiyatlardir. Bir butun(barqaror) jamiyatlarning o'zlariga keladigan bo'lsak, ular faqat bir millatdan iboratdir. Mahkum millatlar, milliy o'zliklarini imperatorliklarning kosmopolit idorasi ta'sirida, sal bo'lmasa, vaqtincha bo'lsada , unutib yuborar edilar. Go'kalp ishonganki, bir kun kelib, mutlaqo alohida- alohida millatlardan tashkil topgan haqiqiy jamiyatlar vujudga keladi, ular yotlik va g'aflat uyqusidan uyg'onadilar, o'z harslari istiqbolini va siyosiy hokimiyatlarni o'rnatishni istab qoladilar. Yevropada besh asrdan beri bunday amaliyot davom etib kelganin aytib o'tadi. Ana shuning uchun mazkur amaliyotda chetda qolgan Avstriya, Rossiya va Usmonli imperatorliklari ham, ulardan oldingilari kabi parchalanishga duchor bo'lishlari muqarrar edi. Ikkinchi sabab, G'arb madaniyati yuksala borgan sari Sharq madaniyatini bus-butunligicha o'rtadan ko'tarib tashlashga intila boshlagandilar. Rossiya va Bolqon millatlarida G'arb madaniyati, sharq madaniyatining o'rniga kelganidek, Usmonli imperatorligida ham ayni shunday hol sodir bo'lishi mumkin edi. Sharq madaniyati, ba'zilar o'ylaganlaridek, haqiqatan ham faqat musulmon madaniyatining o'zidangina iborat emas. Kelib chiqishiga ko'ra, Sharqiy Rim madaniyatidan iborat edi. Huddi shuningdek, G'arb madaniyati ham xristian madaniyatining o'zigagina emas, G'arbiy Rim madaniyatining bir davomidan iborat edi. Usmonlilar Sharqiy Rim madaniyatini to'g'ridan-to'g'ri Vizantiyadan oldilar: o'zlaridan avval musulmon arablar bilan ajamlar mazkur madaniyatni o'zlashtirib olganliklari kabi, usmonlilar uni o'z dindosh millatlaridan oldilar. Bundan tashqari, Go'kalp fikicha ba'zi mutafakkirlar mazkur madaniyatni islom madaniyati, deb talqin etdilar. Yuqoridagi " Madaniyatimiz" nomli mabohasida Sharq madaniyatining Sharqiy Rim madaniyati bo'lganligini tarixiy dalillar bilan isbot qiladi. Ana shu xususdagi dalillar shu qadar ko'pki, ularni bir ikki maqolada emas, balki bir necha jildli kitobda jam qilib berish mumkinligini aytib o'tadi.

Go'kalp fikricha, g'arb madaniyatining hamma jabhalarida Sharq madaniyati o'z o'rnini topishi qonuniy hol bo'lganidek, Turkiyada ham ana shunday hodisaning yuz berishi zaruriy bir holdir. U chog'da Sharq madaniyati doirasida bo'lgan usmonli madaniyati biron-bir halalsiz o'rtadan ko'tariladi va uning o'rniga musulmon dunyosi bilan barobar bo'lgan bir turk harsi, boshqa tomondan esa, G'arb madaniyati vujudga kelishi muqarrardir. Shunday qilib, turkchilikning vazifasi bir tomondan faqat xalq orasida saqlanib qolgan turk harsini ajratib olish, boshqa tarafdin G'arb madaniyatini to'la-to'kis va to'laqonli bir tarzda qabul qilib, milliy hars bilan bog'lanishdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, uning fikricha, faqatgina jamiyatdagi mavjud muammolardan kelib chiqib, ularga yechim topish mumkin edi. Buni yaxshi anglagan Ziya Go'kalp jamiyatning ongi va dunyoqarashini o'zgartirish zarurligini uqtiradi va o'zining yuqoridagi nuqtai-nazarlarini berib o'tadi.

Tanzimatchilar usmonli madaniyatini G'arb madaniyati bilan qaytadan yaratishga kirishgan edilar. Zero, ikki o'zaro zid madaniyat yonma-yon yashay olmaydi: sistemalari bir-biriga qarama-qarshi bo'lganligi uchun ikkisi ham o'zaro bir-birlarining buzilishlariga sabab bo'ladi. Masalan, G'arbning musiqa fani bilan Sharqning musiqa fani bir-biri bilan kirishib keta olmaydi. G'arbning tajribaviy mantig'i bilan Sharqning sxolastik mantig'i, biri boshqa birov bilan birgalikda mavjud bo'la olmaydi. Muayyan bir millat yo Sharqlik bo'ladi, yoki G'arblik bo'ladi. Ikki dinga e'tiqod qo'ygan bir shaxs bo'lmaganidek, ikki madaniyatli bir millat ham bo'lmaydi⁸⁵. Tanzimatchilar buni bilmaganliklari uchun amalga oshirmoqchi bo'lgan fidoyiliklarida muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Turkchilarga keladigan bo'lsak, ular asosan Vizantiyaga tegishli bo'lgan Sharq madaniyatini butunlayicha tark etib, G'arb madaniyatini tugal bir tarzda qabul qilishni istaganliklari uchun ko'zlagan maqsadlariga muvaffaq bo'lishlari muqarrardir. Turkchilar tamomila turk va musulmon sifatida G'arb madaniyatiga to'la-to'kis va qat'iy bir tarzda kirishni istovchilardir. Go'kalp fikricha, G'arb madaniyatiga

⁸⁵ Ziya Gokalp ,” Ziya Gökalp Diyor ki „ (1950) , Ankara. 2006.-B.47.

kirishishdan avval milliy harsni ajratib ola bilish, so'ng milliy harsni ilgari surish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

II bob bo'yicha xulosa

Ziyo Go'kalpning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida davlat, millat, ijtimoiy tabaqa va toifalarning o'rnini markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Uning XX asrda bu haqda fikr yuritishi biroz g'alizroq ko'rinishi mumkin, ammo shuni ham ta'kidlash kerakki, Turkiya XX asr boshlarida ham feodal munosabatlar, eski Shoh, Sultonlar hokimiyati, jamiyatda feodalcha tuzumning xalqni og'ir ahvolga solib qo'yadigan iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar hukm surardi. Ma'na shunday og'ir ahvoldan jamiyatni olib chiqishni maqsad qilgan faylasuf e'tiborini shunday masalalarga qaratdi.

Go'kalp falsafasida g'arb, ayniqsa Fransuz falsafasidan ta'sirlanishni ko'rishimiz mumkin. U o'z jamiyati forovonligini milliy madaniyatdan, ya'ni "Hars"dan ajralmagan holda, ommaviy va aql orqali qabul qilingan "madaniyat"ga e'tibor qaratilishni taklif etadi. Uningcha "Hars" jamiyatning negizi, uni bir kishi, yoki kishilar guruhi suniy tarzda o'zgartira olmaydi. Millatni millat sifatida namoyon qiladigan tushuncha ham aslida ushbu "Hars" tushunchasidir.

Uningcha, "madaniyat" jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi va ayni u yashagan davr uchun bu juda muhimligini anglaydi. Jamiyat o'zgarishi, rivojlanishi uchun u "Madaniyat"ning kerakli va mos tushadigan jihatlarini o'zlashtirib olishi zarur, deb hisoblaydi.

Go'kalp fikricha, o'zga madaniyatga kirishishdan avval milliy harsni ajratib ola bilish, so'ng milliy harsni ilgari surish maqsadga muvofiq bo'lar edi. U o'z qarashlarida turk jamiyatining o'zida mavjud bo'lgan ikki qarama-qarshi toifa, ya'ni G'arb madaniyatiga ko'r-ko'rona taqlid qilgan, hatto so'zlashuv tilida ham bir qancha xorijiy so'zlarning aralashmasini jamlagan, yuqori tabaqa vakillaridan jamlangan "usmonli"lar va oddiy xalq, milliy madaniyatga ega bo'lgan, "usmonli"lar ularni qoloqlikda, madaniyati pastlikda ayblagan, aslida xalqning negizini tashkil etadigan "hars"ni farqlaydi. U "usmonlilar"ni tanqid ostiga oladi.

Bu shundan dalolat beradiki, Turk davlat boshqaruvida yangicha yondashuvni ilgari suradi.

III bob. Ziyó Go'kalp dunyoqarashida g'arb falsafasining o'rni va uning “To'g'ri yo'l” asaridagi jamiyatga oid qarashlari

1. Ziyó Go'kalpning jamiyat haqidagi qarashlari shakllanishida g'arb falsafasining ta'siri

Ma'lumki, insoniyat tarixi turli xalqlar, elatlar, millatlar tarixidan tarkib topadi. Ayniqsa, bir mintaqada yashovchi, bir til guruhiga kiruvchi, e'tiqodi bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlarning tarixi bir-biriga mushtarak bo'ladi. U xalqlarning tarixiy tajribasi bir-birini to'ldiradi. Jamiyat paydo bo'lganidan beri ijtimoiy taraqqiyotning asosini inson va uning faoliyati tashkil etadi. Ijtimoiy tajriba tarixiy jarayonda siyosiy kuchlarning, buyuk tarixiy shaxslarning muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

Ijtimoiy va siyosiy jarayonlar insoniyat paydo bo'lgandan, bugunga qadar eng dolzarb va o'rganishni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Ana shunday qarashlar Ziyó Go'kalp falsafasida ham ko'zga tashlanadi. Uning fikricha, turkchilik jarayonining paydo bo'lishi ijtimoiy hodisadir. Bu hodisani tushuntirishda u “tarixiy moddachilik” va “ijtimoiy mafkurachilik”, kabi ikki o'zaro muxolif nazariyaga ko'ra taqqoslaydi. Birinchi nazariyaga ko'ra, turkchilik faqat iqtisodiy sabablarga ko'ra tug'uladi. Ikkinchi nazariyaga ko'ra, turkchilik oqimining paydo bo'lishi (tug'ulishi) ijtimoiy mafkuralarning o'zaro ta'siridan va ularning o'zaro ta'siri ham ijtimoiy asosning o'zgarishidan ilgari kelishini aytadi⁸⁶.

Qadimdan mamlakatda ikki jamoa borligina aytib, birinchisi halifalik atrofida uyushgan musulmon ummasi bo'lsa, ikkinchisi Rum Eparxiyasi atrofida uyushgan

⁸⁶Gökalp, Z. Türk Medeniyeti Tarihi, Kültür Bakanlığı Yayınları, İstanbul. 1976. –B. 4

xristiyan ummatidir, deydi. Agar dinlar eski quvvatini o'sha shiddat bilan himoya qila olsalar edi, bu jamoalar yo'q bolib ketmasligini uqtiradi.

Lekin Go'kalp fikricha, shaharlarda yashovchi odamlarning ko'payishi tufayli avvalo mehnat taqsimoti ro'y berdi, so'ngra esa, bu tobora teranlasha boshladi. Mehnat taqsimoti maslakiy guruhlarini va maslak guruhlari esa, maslakiy vijdonni tug'dirganligidan eski zamonlarda ham musulmon jamoasi, ham xristiyan jamoasida yagona hokim bo'lgan bu ikki jamoaviylikning vijdoni zaiflasha boshladi. Jamoaviylik vijdonlarning zaiflashishi ularga tayangan jamoalarning ichki birdamligini ham buzdi. Yangi tug'ulagan gazeta va maktab, adabiyot bilan she'riyat ma'nosi anglashilmagan diniy jamoa tili o'rniga jamiyat tilini qo'ydi.

Ana shu tarzda ham musulmonlarning, ham xristainlarning o'z guruhlariga xos vijdonlari, tasavvurlari va yo'llari o'zgardi. Avvalombor, har bir individ o'zi mansub bo'lgan diniy jamoani bir ijtimoiy uzviylik va o'zini uning ajralmas bir bo'lgan sifatida qarar ekan, endi ijtimoiy aloqorlikka ko'ra faqat o'zining tiliga ega jamiyatini ko'rishga va o'zini uning ayrilmas bo'lagi deb tushina boshlaydi. Gokalp fikricha, diniy jamoalarning parchalanishi bilan ularning o'rniga ijtimoiy tili bir bo'lgan jamiyatlarning yuzaga kelishi shu sur'atda sodir bo'ldi⁸⁷. Rum Eparxiyasiga kirgan diniy jamoadan avval Armanilarning so'ngra Valahlar, Serblarning, Bulg'orlarning hatto mustaqillik qozona olgan yunonlarning ajralib, bir qismining Ekzarxlik nomi bilan bu ayrilishga yaqqol bir shakl berganliklarini korsatib o'tadi⁸⁸. Bu esa, ijtimoiy tilli jamiyatlarning Usmonlilik deb atalgan siyosiy jamiyatdan ajralishi diniy jamoalardan ajralishdan so'ngra bo'lmasa ham, dastlabki sababi siyosiy bo'lmay, sof madaniy sabab ekanligini ko'rsatadi.

Zotan til va madaniyat unsurlaridan iborat milliyatlar eski zamonlarda ham mavjud bo'lgan. Lekin ikki turli imperializm, diniy va siyosiy imperializmlar ularni ikki jamoa ichida, ya'ni saltanat va ummat tarafdorlari ichida hibsga olgan edi. Bu jamoalarning tarafdorlari quvvatdan tushguncha hibsga olingan guruhlarining qad ko'tara olishlari uchun mujoadalaga kirishmoqlari tabiiy edi.

⁸⁷Gökalp, Ziya, Türkleşmek İslâmlaşmak Muasırlaşmak, Ankara Kültür Bakanlığı Yayınları 1976. –B. 6

⁸⁸ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gokalp/Xuseyin.R

Mutafakkir fikricha, mamlakatdagi dastlabki davrda diniy ekzarxiklar, keyinroq siyosiy muhtoriyatlar va istiqlol tarzida namoyon bo'lgan millatchilik jarayonlari shu tariqa yuzaga chiqqan. Misol sifatida Arnautlarni keltirib Boshqimchilik(usmon imperiyasidan ajralish tarafdori bo'lgan milliy Alban partiyasi)ning markazi Toskaniyaliklar eski zamonlardan beri Bektoshiyaga ergashib, diniy jamoadan uzoqlashganligini aytadi. Ular dastavval asrimiz ehtiyoji bo'lgan maktab va matbuot, she'riyat va adabiyotdan o'z nasibalarini olish uchun o'z tillarini qo'llashni istadilar. Buning uchun avvalo bir yozuvni qabul qilish zarur edi. Ular qabul qilgan yozuvning "Lotincha" bo'lishi ham shuni ko'rsatadiki, Tosklar hamma narsadan oldin diniy jamoadan ajralgan edilar. Ancha oldingi zamonlardan zaiflasha boshlagan diniy birdamlik o'rniga, miliy madaniyatga tayangan bir birdamlikni vujudga keltirishga kirishgan edilar. Arablar va kurdlarda ham millatchilik jarayoni, dastavval miliy madaniyat shaklida boshlangan edi. Bu jarayonlarninig siyosiy bir ahamiyat kasb etishi ikkinchi bosqich, iqtisodiy ahamiyat kasb etishlari esa uchinchi bosqichdir⁸⁹.

Turkchilikka kelinsa, uning ham milliy madaniyat sohasida boshlanganligini eslatib o'tadi. Turkchilikning vakillaridan biri eski Dorilfunun (Universitet)imizning, ikkinchisi esa, askariy (harbiy) maktablarimizning quruvchilaridir. Madrasa kuchli bo'lganda edi, Dorilfunun ta'sis etilmas edi. Asrlar davomida madrasaning salohiyatli quvvati mohiyatini himoya qilgan yanicharilik mavjud bo'lar ekan, askarlik maktablari ta'sis etilmas edi. Ijtimoiy taqsimotining natijasi sifatida turklarda ham diniy jamoaning birlashtiruvchi kuchi nihoyatda zaiflasha boshladi. Sulton Abdulaziz davrinig oxirlarida Anjumani Donish bilan Dorilfuninning ochilishi, askariy maktablarga yangi bir nizom va intizom berilishi tashabbusning paydo bo'lishi yuqorida eslatilgan zaiflashishning natijasidir. Bu yangi muassasalarning boshida turgan Ahmad Vofiq Poshsho bilan Sulaymon Poshsho parchalana boshlagan saltanat jamoalari ichida kompassiz qolgan millatlarning til, milliy madaniyat, tarixiy jihatlardan birdamligini yangidan

⁸⁹Gökalp, Z. Makaleler IX, Kültür Bakanlığı Yayınları, İstanbul. 1980. –B. 7

quvvatlantirmoq va yoshlarni ana shu yangi mafkura ruhida tarbiya qilish ehtiyojini sezadilar. Shundan so'ng, yigirma yillik sana orasida tug'ilgan tasfiyachilik(soflashtiruvchilik) va yangi til yaratish oqimlari ham Turkchilik mafkurasida, ayniqsa, til bilan milliy madaniyat omili bo'lganligini ko'rsatadi. Garchi, Turkchilikning nihoyasida "milliy iqtisod" mafkurasi ham paydo bo'lgan bo'lsada, biroq bu nazariyani ilgari surganlar va iqtisodchilar, na tarix bilan qiziqqan kishilar edi. Millatning "Milliy huquq", "Milliy ahloq", "Milliy tarbiya", hatto "Milliy falsafa" kabi turli tajallilarini izlaganlar milliy madaniyatchi Turkchilar edi. Milliy iqtisod ham turklarda, dastavval manfaatnigina ko'zlagan bir mafkura shaklida tug'ilgan va sof nazariy o'laroq, mamlakatning iqtisodiy sha'niyatini, ziroatning, sanayining, tijoratning turli sohalarida joriy etilayotgan huquqiy tartiblar bilan texnik shakllar qidira boshladi. Ammo jahon urushi bu yuksalishlarning to'xtatilishiga, turli tarzdagi amaliy ahamiyatli tadbiquotlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Milliy iqtisodiyot fani savdo-sotiq spekulyatsiya vositasi emas, ilmiy bir maktabdir. Olmoniyada bu maktabning asoschisi Fridrix Listdir. Dyurkegeym Listning milliy iqtisod haqidagi asari hususida: "Ob'yektiv usulda yozilgan haqiqatga asoslangan dastlabki iqtisodiyot kitobidir"⁹⁰, deydi. Biroq mazkur milliy iqtisodiyot ilmi bir joyda milliy mafkuradan oldin emas, balki so'ngra tug'iladi.

Turkchilikning paydo bo'lishidan avval Yevropada turkchilikka oid ikki harakat vujudga keldi. Shulardan birinchisi fransuzchada "Turquerie", deb nom olgan. Turkiyada tayyorlangan ipak va yung to'qimachilik matolari, gilamlar, paloslar, chinnilar, temirchilik va yo'g'och o'ymakorligi na'munalari, muqovachilar va ustalar yaratgan muqovalar, uskunalar, mang'alar, shamdonlar va shu kabi turk san'atining asarlari Yevropa nafosat (san'at) parastlarining diqqatini jalb qilar edi. Ular turklarning san'at asarlari bo'lmish ashyolarni ming-minglab liralar sarflab to'plashar va uylarida Turk saloni yoxud Turk palatasi(o'chog'i)ni

⁹⁰Gökalp, Z. Makaleler IX, Kültür Bakanlığı Yayınları, İstanbul. 1980.-B. 12

vujudga keltirar edilar. Ba'zilar esa, ularni boshqa millatlarga tegishli badi'a(ajoyibotu, mo'jiza)lar qatori bibliografiyada sanab o'tardilar.

Yevropalik rassomlarning Turk hayotiga oid tablo(fransuzcha kartina)lari bilan shoirlari va faylasuflarning ahloqi tasvirlab yozilgan kitoblari ham "Turquerie" o'z ichiga olar edi. Lamartinning, Avgusto-Komtenning , Pyer Lafayetning , Ali Poshshoning kitoblari Mismer Pyer Loti, Farrarlarning turklar haqidagi do'stona yozganlari ana shu jumladandir. Yevropadagi bu harakat tamomila Turkiyadagi badiiy san'atlarda va ahloqlikdagi yuksakliklarning namoyon bo'lishidan iboratdir.

Yevropada paydo bo'lgan ikkinchi harakatga Turkiyat (Tyrkoloji) nomi beriladi. Rossiyada, Germaniyda, Daniyada, Fransiyada, Buyuk Britaniyada bir qancha olimlar eski turklarga, Xunlarga va Mo'g'ullarga oid tarixni va osori-atiqalarni izlab topib, tadqiq eta boshladilar. Turklarning juda ham qadimgi bir millat ekanliklarini, g'oyat keng hududlarda yashab kelganliklarini va turli zamonlarda jahongirona davlatlar va yuksak madaniyatlarni vujudga keltirganliklarini o'rtaga qo'ya boshladilar. Shunisi ham bor ediki, mazkur tadqiqotlarning mavzui Turkiya turklari emas, qadimgi Sharq turklari edi. Biroq birinchi harakat kabi, ushbu ikkinchi harakat ham mamlakatdagi ba'zi mutafakkirlarning ruhiga ta'sir etmay qolmas edi. Ayniqsa, fransuz tarixchilaridan Degyuygning turklar, xunlar va mo'g'illarga oid yozgan tarix kitobi bilan ingliz olimlaridan Ser Devid Lomleynning Sulton Salim III ga bag'ishlangan "Kitobi-ilm-Nafi"nomli umumiy turk grammatikasi mutafakkirlar ruhida buyuk ta'sirlar uyg'otgan edi. Mazkur asar muallif tomonidan inglizcha yozilgan edi. Bir oz vaqt o'tgandan so'ng onasi bu asarni fransuzchaga tarjima qilib, Sulton Mahmudga bag'ishladi. Bu asarda turkchanning turli shu'balaridan tashqari, turk madaniyatidan, turk etnografiyasidan va tarixidan bahs yuritilardi.

Ziyo Go'kalpning davlat haqidagi qarashlarida milliy vijdon va milliy birdamlikni kuchaytirish kabi g'oyalar ham bor. Milliy vijdonni kuchaytirish haqida gapirar ekan, ijtimoiy qatlamlar haqida so'z yuritadi. U ijtimoy qatlamlarni uch qismga ajratadi: Oilaviy qatlamlar, siyosiy va maslakiy qatlamlar. Ular orasida

siyosiy tabaqani eng muhim sanaydi. Chunki siyosiy tabaqa o'zi-o'zicha yashagan mustaqil yoxud bir mustaqil bir hayotdir. Oilaviy va maslakiy tabaqalar esa jarayonning parchalari, qismlari mohiyatiga egadir. Ya'ni, siyosiy qatlamlar biror ijtimoiy uzviylikdir, oilaviy qatlam bu uzviylikning hujayralari, maslakiy qatlamlar ham bo'laklar kabidir. Bundan kelib chiqadiki, oilaviy va maslakiy qatlamlarga "tole' qatlamlar" nomini berish mumkin.⁹¹

Siyosiy qatlamlar ham o'z-o'zlaricha uchga ajraladi: guruh(cemia), jamoa (camia), jamiyat (cemiyet).

Mutafakkir fikricha, guruh (urug'-qabila-klan) bir qavmdan kichkinagina qismining siyosiy bir hayot holiga erishishi bilan tashkil topadi. Masalan, bir mustaqil qavm mustaqil ko'chmanchilarga ajralsa, bu ko'chmanchilardan har biri(urug'-klan)dir. Ibtidoiy qavmlar ana shu urug'chilik holatida hayot kechirganlar. Shunday bir davr keladiki, urug'lardan biri boshqalarini bosib olish yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritadilar. Biroq ularni o'z ichiga olgan urug'lar umumiy o'z qavmiga mansub bo'lgan ko'chmanchilar emasdir. Boshqa-boshqa qavmlarga yoxud boshqa dinlarga mansub urug'larni mag'lub etish bilan to'be' qilish orqali tashkil topgan yangi hayot bir butunligini, bir jinsligini yo'qotishini va turli qavmlar va dinlarga mansub urug'lardan tashkil topgan omuxta shaklini olishini ta'kidladi. Ana shunday omixtaga, u "jamoal" nomini beradi. U holda butun feodal boyliklar bilan umum imperatorliklar "jamoal" mohiyatiga egadirlar. Chunki, bu siyosiy hayotda boshqa-boshqa qavmlarga va dinlarga mansub guruhlar mavjuddir.

"Yana shunday davr keladiki", deydi Ziyo Go'kalp, bu jamoalar ham tarqalib keta boshlaydi. Imperatorliklar ichida til va milliy madaniyat nuqtayi nazaridan mushtarak bo'lgan guruhlar ijtimoiy tarzda birlashib, umumiy vijdonga va mushtarak mafkuraga ega bo'lgan bir millat (milliyat) holiga keladi. Bu milliyat milliy vijdonga ega bo'lgandan so'ngra uzoq muddat tobelikda endilikda qolishi mumkin emas. Erta yoki kech siyosiy mustaqilligini qo'lda tutganicha istiqboliga ega bir siyosiy holiga erishadi. Shunday qilib, bu bir millatilik, birlashganlik va

⁹¹Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 56

mustaqillik hayotni “jamiyat” deb atash mumkin. Bu jamiyatlarni ayni zamonda “millat”, deb ham ataladi. Demak, haqiqiy jamiyatlarga millatlardir. Lekin qavmlar birdaniga millat holiga erishmaydilar. Dastavval urug’lar holida ijtimoiy hayotning odatdagi chaqaloq davrini o’z boshlaridan kechiradilar, so’ngra biron-bir jamoa tarkibiga kirib, unda ham ijtimoiy hayotning uzoq bir shogirdlik davrini boshdan kechiradilar. Nihoyat, imperatorlik zulmidan to’yib, mustaqil hayot kechirish yuzasidan jamoa (imperatorliklar, feodal jamoalar)dan ajralib chiqadilar”.⁹²

Go’kalp fikriga ko’ra, jamoa hayoti mahkum qavmlar uchun qanchalik zararli bo’lsa, hokim qavm uchun shunchalik zararlidir. Bunga o’z qavmidan ortiq bir misol bo’lishi mumkin emasligini aytib o’tadi. Turklar usmonli imperatorligini quruvchilar ekan, mazkur jamoa vujudga keltirgan feodalizm ichida “ra’iyat” (fuqaro) holatiga tushdilar. Ayni zamonda o’z hayotlarini jamiyatga askar va jandarma vazifalarini bajaruvchi sifatida kechirganliklaridan bo’lishi va iqtisodiy kuchayish uchun vaqtga ham, imkoniyatga ham ega emas edilar. Boshqa qavmlar usmonlilar jamiyatidan o’qimishli, madaniyatli va boy bir holda ajralib chiqarkanlar, nochor turklar qo’llaridagi quruq bir qilich bilan eski omochdan boshqa bir merosga ega emas edilar.

Shu bilan birga, bir inson uchun chaqaloqlik va shogirdlik davrini boshdan kechirish qanchalik zaruriy bo’lsa, bir qavm ichida ham guruh va jamoa davrini o’tish ham zaruriydir. Har qanday qavm bu darajalarni bosib o’tganidan keyingina jamiyat va millat holiga kela oladi.

Ziyo Go’kalp shuni alohida ta’kidlaydiki, jamiyat hayotiga tez kirishib ketgan hokim bir millat, jamoa davrini yana ham ko’p zarar ko’rmasdan o’z boshidan kechiradi. Masalan, Ingliz qavmi Iskochiya (Shotlandiya), Gallar va Irlandlarni bosib olmasdan avval jamiyat darajasiga o’tib yetgan edi. Xalq saylagan deputatlar Lordlar bilan birlashib mamlakatni idora qilardilar. Saroy bir ko’lankadan iborat edi, xolos. Ana shu tufayli barcha masalalar saroyning manfaatiga emas, balki xalqning foydasiga uyg’un bir tarzda o’z shakillarini

⁹² Ziyo Gokalp, Turkchilik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasi)T.:GFNTI. 1994. –B. 56

deputatlar yordamida tushunib qaror qabul qiladigan, uyg'ongan bir millat holiga erishgan edi. Asrlar davomida ingliz Parlamenti faqat Anglo-Saksonlardan tashkil topganicha majlis qildi. Ichida milliy siyosatga monelik qiladigan hech bir yot unsur mavjud emasdi.

Mutafakkir inglizlar so'ngi to'rt yuz yil bu samimiy va toza konstitutsiyali hayotini yashab, miliy madaniyatlarini va milliy harakatlarini buzilmas va o'zgarmas bir salobat va obro'li holga yetkazganlaridan so'ngina Shotlandiya, Galliya va Irlandiya o'lkalarini bosib olib, Buyuk Britaniyaga qoshib oldilar. Biroq, bu qo'shib olish siyosiy qo'shib olishdan iborat edi. Hech bir vaqt inglizlar bu uch qavmni ingliz jamiyatiga, Anglo-Sakson millatiga qo'shilishiga yo'l qo'ymadilar. Mamlakat xuddi yana eski vaqtlardagidek faqat Inglizlardan iborat bo'lgani kabi beistisno ingliz manfaati va mafkurasi nuqtai nazaridan idora qilindi. Keyingi davrlardagi Amerika, Hindiston, Janubiy Afrika, Misr, Avstraliya kabi mamlakatlarga va kaloniyalarga ega bo'ldilar⁹³. Biroq doimo Parlament Ingliz Parlamenti sifatida, Kabinet Anglo-Sakson kabeniti sifatida qolaverdi. Ingliz millati tobora ulug'vor tortib borayotganbu siyosiy konglomerat(jamoa) ichida o'z menligini, bir on bo'lsada, sira yo'qotmadi. Shunday qilib, ingliz millatining asrlardan beri jahon siyosatida hokimlikni o'z qolida tutishga harakat qilishining sababi ana shundan iboratdir, deb biladi.

Ko'rinib turibdiki, muayyan bir qavm(xalq) o'zi-o'zini milliy parlament bilan idora qiladigan haqiqiy millat darajasiga erishganidan so'ngina yuksak va samimiy bir jamiyat hayoti bilan yashay oladi. Yevropaning boshqa qavmlari bu haqiqatni ancha kech angladilar. Chunki, ikki asr avvalgi davlarigacha Yevropaning boshqa mamlakatlarida xalqlar va o'lkalar hukmdor oilalarning amirlari va pomeschchiklari hukmida edilar. Bir hukmdor qizini turmushga berar ekan, mamlakatning bir qismini unga jihoz sifatida berardi. Bir hukmdor viloyatlardan birini boshqa bir hukmdorga hadya qila olardi, yoxud sota olardi. Meros yo'li bilan mamlakatning bir qismi yot bir hukmdorning qo'liga o'tib ketaverar edi. Qisqasi, xalqlarning, qavmlarning hech biri mavjudiyati, hisobda hech bir o'rni yo'q edi. Davlat degani

⁹³ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gukalp/Xuseyin.R

hukmdor degani bilan barobar edi. Bu dastur faqat Lyudovik XIV gagina xos emas edi. Buyuk Britaniyadan tashqari, butun Yevropa davlatlarining siyosiy shiyori ana shundan iborat edi. Biroq millatchilik davri nihoyat boshqa Yevropa qavmlarida ham qaror topadi. Gollandlar, fransuzlar va boshqalar o'z-o'zini idora etadigan biron millat mavqeyini ola boshladilar. Tarix, umumiy bir qoida sifatida shuni ko'rsatadiki, qayergaki islohotlar ruhi kirar ekan, u yerda bir taraqqiyot va takomil jarayoni tug'uladi. Siyosiy, diniy, ahloqiy, badiiy, huquqiy, ilmiy, falsafiy, iqtisodiy, lisoniy hayotlarning hammasiga yoshlik, samimiylik va tarovat baxsh etiladi. Har narsa yuksala boshlaydi. Biroq barcha bunday taraqqiyotlarga qo'shimcha sifatida yangi bir xarakterning maydonga kelganligini ham tarix bizga qiyosan xabar beradi. Milliy vijdon qayerda shakillangan bo'lsa, u yer mustamlaka bo'lish tahlikasidan qutuladi.

